KITOB RAQAMI: **8008715** TIP: **032**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITSION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

# TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

| Test topshiriqlari kitobi raqami | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | 0 | 0 | 8 | 7 | 1 | 5 |

| | | |
|---|---|---|
| **1-30** topshiriqlar | *Majburiy fanlar* |
| **31-60** topshiriqlar | *Matematika* |
| **61-90** topshiriqlar | *Fizika* |

ABITURIYENT DIQQATIGA!

1. Har bir majburiy fandan 10 tadan, mutaxassislik fanlaridan 30 tadan test topshirig‘i **mavjudligini tekshiring**.
2. Nuqsonlar aniqlanganda **darhol** guruh nazoratchisiga **ma’lum qiling**.
3. Ushbu kitob raqamini javoblar varaqasiga **ko‘chiring**.
4. Kitob muqovasiga o‘zingiz haqingizdagi **ma’lumotlarni yozing va imzo qo‘ying**.
5. Ushbu kitob guruh nazoratchisiga **topshirilishi shart**.

Familiyangiz: ______________________

Ismingiz: ______________________

Otangizning ismi: ______________________

.........................................
Imzo

**Yuqoridagi ma’lumotlar qayd etilmagan yoki kitobga shikast yetkazilgan hollarda e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.**

Davlat test markazi © 2022

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qatorini belgilang.

A) *qo'sh//tabaqa, tomdan//tomga*
B) *o't//o'lan, kunma//kun*
C) *baland//parvoz, ko'z//oynak*
D) *mehnat//sevar, och//yashil*

**2.** Qaysi javobda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) *Yo alhazar! Salomni ham ravo ko'rmadi-ya!*

B) *Moviy osmon, go'zal o'rmon – hammasi ko'z o'ngimda gavdalanadi.*

C) *Qadimgilar demish "O'z uyim o'lan to'shagim".*

D) *– Nima qilay?*
*– O'qi!*

**3.** Qaysi so'zlarning yozilishida bosh harflar imlosiga amal qilingan?

A) *O'zbekiston Respublikasi prezidenti, Oliy majlis qonunchilik palatasi*

B) *21-mart – Navro'z Bayrami, Azamat Shuhrat O'g'li*

C) *Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Markaziy Osiyo*

D) *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Qiziltepa tumani*

**4.** *Bir joyda topilsa nogoh gavhar donasi,*
*Cho'ntagi teshik har kim da'vo qilgan hamisha.*
Ushbu she'riy parchadagi kesim(lar)ni toping.

A) *teshik, da'vo qilgan* B) *donasi, hamisha*
C) *topilsa, hamisha* D) *topilsa, da'vo qilgan*

**5.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) *Qalin kiyinib olganim uchun darrov isib ketdim.*

B) *Sirti ham yaxshilab bo'yalgan ekan.*

C) *G'aribning ko'nglini ovlamoq – savob.*

D) *Agar bu sovuq odam bo'lmasa edi, qizning qalbi bu qadar ozorlanmas edi.*

**6.** Qaysi javobda holat bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

A) *qo'qqisdan, birdan, bugundan*

B) *astoydil, piyoda, xayolan*

C) *hamon, mardlarcha, jim*

D) *birin-ketin, arang, qishin-yozin*

**7.** Faqat harakat bildiruvchi so'zlar doirasida shakldoshlik hosil qiluvchi so'zni aniqlang.

A) *suz* B) *tuz* C) *o'y* D) *ari*

**8.** To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) *sanaot, manaviyat* B) *suhbat, mo'tabar*
C) *tarovot, inshaot* D) *zomon, tamom*

**9.** Qaysi javobda rasmiy uslubga oid gap berilgan?

A) *Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi yordamida bog'lanishiga boshqaruv deyiladi.*

B) *Sizga yig'ilish har oyning so'nggi jumasida o'tkazilishini ma'lum qilamiz.*

C) *Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti.*

D) *Bugungi ko'rsatuvimizda ta'lim sohasidagi islohotlar haqida fikr almashamiz.*

**10.** Qaysi gapda tushum kelishigini tushirib qo'llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Varrakni uchirish menga yoqib qolganidan akamning gapiga quloq ham solmasdim.*

B) *Xatni yozib bergan odamdan bu haqida so'ramagan edim.*

C) *Siz mendan nimani so'rayotganigizga aqlim yetmayapti-da.*

D) *Ko'pchilik Leonardo da Vinchi ismini eshitganida uning mashhur suratini yodga oladi.*

### MATEMATIKA

**11.** Uchburchakning tomonlari 3, 4, 6 sonlariga to'g'ri proporsionaldir. Agar uchburchakning perimetri 169 cm bo'lsa, uchburchakning eng katta tomonining uzunligini (cm) toping.

A) *78*

B) *76*

C) *52*

D) *64*

**12.** Hadicha 14 ta turli rangdan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlashi mumkin?

A) *10*

B) *14*

C) *8*

D) *7*

**13.** 1 soat 45 daqiqa= ? soniya

A) *6300*

B) *5400*

C) *3600*

D) *5700*

**14.** Rasmdagi to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri 28 cm ga teng. $x$ ni toping.




A) *4*

B) *3*

C) *2*

D) *1*

**15.** 1875315 soni necha xonali son hisoblanadi?

A) *5*

B) *3*

C) *6*

D) *7*

**16.** Tenglamani yeching: $10(x-10)=6x$

A) *30*

B) *20*

C) *24*

D) *25*

**17.** To‘g‘ri burchakli parallelepipedning bo‘yi, eni va balandligi mos ravishda 6 dm, 5 dm va 10 dm ga teng bo‘lsa, to‘g‘ri burchakli parallelepiped asosining yuzini ($dm^2$) toping.

A) *21*

B) *30*

C) *60*

D) *50*

**18.** Sardor "Men uyga ketdim" gapining har bir so‘zidagi harflar sonini o‘zaro ko‘paytirdi. U qanday natija olgan?

A) *36*

B) *30*

C) *60*

D) *72*

**19.** Quyidagi oddiy kasrlardan qaysi biri 0,4 ga teng?

A) $\frac{2}{3}$

B) $\frac{2}{5}$

C) $\frac{1}{4}$

D) $\frac{4}{5}$

**20.** Chizmadan foydalanib $B(x)$ nuqtaning koordinatasini toping (belgilangan yonma-yon joylashgan nuqtalar orasidagi masofalar bir xil).




A) $-1$

B) *0*

C) *1*

D) *2*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** “Afrosiyob qo‘rg‘oni” asarining muallifini aniqlang.

A) *X.Vamberi* B) *A.Jenkinson* C) *N.Vasilevskiy* D) *V.Vyatkin*

**22.** Temuriylar davrida Movarounnahrning poytaxti bo‘lgan shaharni aniqlang.

A) *Samarqand* B) *Buxoro* C) *O‘ratepa* D) *Farg‘ona*

**23.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri Turkiston general-gubernatori sifatida **faoliyat yuritmagan**?

A) *S.M.Duxovskoy* B) *K.P.Kaufman* C) *A.Vrevskiy* D) *P.Lessar*

**24.** Quyidagi qaysi shahar Mang‘itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining poytaxti bo‘lgan?

A) *Qarshi* B) *Shahrisabz* C) *Samarqand* D) *Buxoro*

**25.** XII asrda qonunshunoslar uchun maxsus "Faqihlar madrasasi" qayerda barpo etilgan?

A) *Buxoroda* B) *Xorazmda* C) *Toshkentda*
D) *Samarqandda*

**26.** Amir Temurning qaysi raqibiga qarshi so'nggi shiddatli jangi 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo'yida sodir bo'lgan?

A) *Turk sultoni Boyazidga*

B) *Balx hokimi Amir Husaynga*

C) *Misr sultoni Barquqga*

D) *Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga*

**27.** "Haq olinur berilmas" shiorini o'rtaga tashlagan vatandoshimizni toping.

A) *Mahmudxo'ja Behbudiy*
B) *Mahmud Torobiy* C) *Abdurauf Fitrat*
D) *Cho'lpon*

**28.** 2014-yilning 15-16-may kunlari qaysi shaharda buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilgan?

A) *Toshkentda* B) *Samarqandda*
C) *Buxoroda* D) *Xivada*

**29.** Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo'shib olinib, yaqindan aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga qaysi din kirib kelgan?

A) *zardushtiylik* B) *buddaviylik*
C) *moniylik* D) *qam*

**30.** XIV asr birinchi yarmida Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf shahri yonida o'ziga saroy qurdirgan Chig'atoy xonini toping.

A) *O'qtoy* B) *Munke*
C) *Mahmud Yalavoch* D) *Kebek*

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** Qaysi gapda koʻp nuqta oʻrnida “urib” soʻzini ham, “tushirib” soʻzini ham qoʻllash mumkin?

A) *Elmurod hammani mukofotga taqdim etganda oʻzini ... qoldirgan edi.*

B) *Shu sohadagi kamchiliklarni bir necha bor gazetada ... chiqdi, ammo foydasi boʻlmadi.*

C) *Ertalabdan yomgʻir maydalab ... turdi, kechga yaqin qorga aylandi.*

D) *Joʻraboshining gʻalati qiliqlari bor edi, baʼzan toʻsatdan kimningdir yelkasiga mushti bilan ... qolar edi.*

**2.** Qaysi javobdagi soʻzlar toʻgʻri yozilgan?

A) *maqsad, baho* B) *xarorat, davomad*
C) *hamon, okeyan* D) *avtomat, exson*

**3.** Ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar qatorini toping.

A) *savdo//sotiq, ichak//uzdi*
B) *tele//koʻrsatuv, sap//sariq*
C) *hamma//vaqt, isrof//qilmoq*
D) *koʻrmoqchi//emish, xon//taxta*

**4.** Qaysi gapda ega qatnashmagan?

A) *llgʻorlarga mukofot puli berildi.*

B) *Oʻqishga arziydigan narsalarni yozish kerak.*

C) *Dunyoda kitobdan yaxshi doʻst yoʻqdir.*

D) *Yuzaki oʻylash yaxshi ish emas.*

**5.** Qaysi gapda rost soʻzi “adil, tik” maʼnolarida qoʻllangan?

A) *Rostini aytsam, bugun ham siz aytgan joyga bora olmayman.*

B) *Rost, baʼzi vaqtlarda atrofdagilardan ham toʻyib ketasan kishi.*

C) *Yolgʻonchining rost soʻzi ham atrofdagilar uchun yolgʻondek tuyulaveradi.*

D) *Musibat baʼzan eng zabardast yigitlarning ham rost qomatini egib qoʻyadi.*

**6.** Qaysi gapda bosh harflar imlosiga amal qilingan?

A) *Erkin Vohidov “Ruhlar Isyoni” dostonining muallifidir.*

B) *Erkin Vohidov Fargʻona Viloyatining Oltiariq tumanida tavallud topgan.*

C) *Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan.*

D) *Oʻzbekiston Xalq Shoiri Erkin Vohidov 1964-yil “Nido” dostonini yaratdi.*

**7.** Qaysi javobda rasmiy uslubga oid gap berilgan?

A) *Hazrat Alisher Navoiy Hirotning maʼnaviy quyoshi edi.*

B) *Tovush toʻlqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bogʻliq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.*

C) *– Ke, picha dam ol, qoʻzichogʻim, toza charchabsan.*

D) *Ushbu maʼlumotnoma soʻralgan joyga taqdim etish uchun berildi.*

**8.** Qaysi soʻzlar ravish turkumiga mansub?

A) *mardona, toʻyona* B) *darrov, majburan*
C) *vijdonan, hech qanday*
D) *hech nima, har gal*

**9.** Qaysi gapda kelishik qoʻshimchasini qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatolik mavjud?

A) *Onam kechasi uy yumushlarini bajarar, kunduzi esa dalada ishlar edilar.*

B) *U ham sen kabi yoshligidan fantastik asar oʻqishga qiziqardi.*

C) *Siz bilan hamsuhbat boʻlganimdan xursandman.*

D) *Jaloliddin singlisini soʻnggi marta Samarqandga koʻrgan edi.*

**10.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *Hayotning boshqalar ko‘rmagan tomonini ko‘rish – talant.*

B) *Kishini g‘azab yoki shunga o‘xshash his egallasa; uning qabul qilgan qarori albatta noto‘g‘ri bo‘ladi.*

C) *Shunday harakat qilingki – birovga yuk bo‘lmang balki hamroh bo‘ling.*

D) *Kelajak bundan buyon ikki xil toifa kishilar: aqliy, hamda jismoniy mehnat kishilari qo‘lidadir.*

## MATEMATIKA

**11.** Metall qotishmasi massasining o‘rtacha $\frac{2}{5}$ qismini temir tashkil qiladi. 70 kg li metall qotishmasining o‘rtacha necha kilogrammini temir tashkil qiladi?

A) *30 kg*

B) *35 kg*

C) *28 kg*

D) *24 kg*

**12.** Hisoblang: $351 : 100 + 11 : 10$

A) *3,61*

B) *4,61*

C) *3,62*

D) *4,53*

**13.** Tenglamani yeching: $\frac{1}{2-x} = \frac{3}{4+x}$

A) $\frac{1}{3}$

B) $\frac{2}{3}$

C) $\frac{1}{2}$

D) $\frac{1}{4}$

**14.** Rasmdan foydalanib $ABC$ burchakning gradus o‘lchovini toping.




A) *100°*

B) *130°*

C) *120°*

D) *110°*

**15.** Hajmi 1000 $m^3$ ga teng bo‘lgan kubning qirrasini (m) toping.

A) *7*

B) *9*

C) *10*

D) *8*

**16.** Benzin baki va kanistrning hajmlari mos ravishda 9:1 nisbatda. Benzinga to‘la bakni bo‘shatish uchun eng kamida nechta (hajmi dastlabki kanistr hajmi bilan bir xil bo‘lgan) kanistr kerak bo‘ladi?

A) *8*

B) *7*

C) *9*

D) *10*

**17.** 17 metr necha millimetrga teng?

A) *1700*

B) *170000*

C) *170*

D) *17000*

**18.** Xaridor 4 ta har xil shokoladlardan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlab, sotib olishi mumkin?

A) *2*

B) *1*

C) *3*

D) *4*

**19.** $8 \le x \le 14$ qo‘sh tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlardan eng katta tub sonni toping.

A) *17*
B) *11*
C) *13*
D) *9*

**20.** Hisoblang: $42 \cdot 25 + 18 \cdot (97 - 87)$

A) *1220*
B) *1320*
C) *1230*
D) *1330*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakilining qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?

A) *Samarqand* B) *Buxoro* C) *Kogon* D) *Kattaqo‘rg‘on*

**22.** 2007-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2000 yillik yubileyi nishonlangan?

A) *Termiz* B) *Toshkent* C) *Qarshi* D) *Marg‘ilon*

**23.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri 1271-yil Chig‘atoy ulusida pul islohotini o‘tkazgan?

A) *Mahmud Yalavoch* B) *Shamsiddin Mahbubiy* C) *Mahmud Torobiy* D) *Ma’sudbek*

**24.** 1533-yil Buxoro xonligining poytaxti etib belgilangan shaharni aniqlang.

A) *Samarqand* B) *Qarshi* C) *Shahrisabz* D) *Buxoro*

**25.** V asr boshlarida O‘rta Osiyo hududiga Sharqdan kirib kelgan qabilani toping.

A) *xioniylar* B) *qarluqlar* C) *eftallar* D) *o‘g‘uzlar*

**26.** Quyida sanab o‘tilgan shaxslardan qaysi biri O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?

A) *Sobir Kamolov* B) *Mahmudxo‘ja Behbudiy* C) *Amin Niyozov* D) *Nuriddin Muhitdinov*

**27.** 1433-yilda qaysi shaharda Mirzo Ulug‘bek tomonidan madrasa qurdirilgan?

A) *Samarqandda* B) *Hirotda* C) *G‘ijduvonda* D) *Buxoroda*

**28.** Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida o‘z mustaqilligini saqlab qolgan davlat(hudud)ni toping.

A) *Baqtriya* B) *Xorazm* C) *So‘g‘diyona* D) *Marg‘iyona*

**29.** Rossiya hukumati tomonidan 1858-yilda Buxoro va Xivaga yuborilgan diplomatik missiya rahbarini toping.

A) *A.Byorns* B) *V.Vyatkin* C) *A.Jenkinson* D) *N.Ignatyev*

**30.** 1898-yili Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan shaxsni aniqlang.

A) *S.M.Duxovskoy* B) *K.P.Kaufman* C) *G.Rozenbax* D) *A.N.Kuropatkin*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi javobda holat ravishi qatnashgan?

A) *Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda*

*Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.*

B) *Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda...*

*Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.*

C) *Vodiylarni yayov kezganda*

*Bir ajib his bor edi menda.*

D) *Ona kelar yo'lda yugurib,*

*Ko'ringandan qizini so'rab.*

**2.** To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) *isnot, extiyot* B) *ogoh, saxovat*
C) *horijiy, muvafaqiyat* D) *xashamat, davat*

**3.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda **qo'llanmagan**?

A) *Kishining ko'nglini og'ritmang, qo'pol savolga ham silliqqina javob berishni uddalang.*

B) *Faqat ana shu kir maqsadga yetish uchun Alimqul bilan bitim tuzdi.*

C) *Musavvirning bo'yoqlarni mahorat bilan tanlay olishi uning noyob iste'dodidan dalolatdir.*

D) *Fikrlashi sayoz odam bilan suhbatlashish ko'pincha kishining ta'bini tirriq qiladi.*

**4.** Qaysi gapda o'zaro ma'nodosh so'zlar ishtirok etgan?

A) *Gunafshalar qulog'imga madhingni*

*So'zlab-so'zlab charchadilar, bitmadi.*

B) *Quyosh chiqdi, gul yaprog'iga*

*Tunda qo'ngan shabnam aridi.*

C) *Qon yugurdi ol yonog'iga,*

*Bargi g'ubor – changdan aridi.*

D) *Bolangga ham, uyingga ham qara, ham dam ol.*

**5.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan birlik sabab holi vazifasini bajargan?

A) *Shunaqa gaplarni aytadiki, ilon po'st tashlaydi-ya.*

B) *Bu ishni yeng shimarib bajargan Odiljonni otasi maqtab qo'ydi.*

C) *Hafsalasi pir bo'lgan Anvarjon uyga qaytib keldi va kun bo'yi xonasidan chiqmadi.*

D) *Ikki oyog'ini bir etikka tiqib olgani uchun shu velosipedni olib berdim.*

**6.** Qaysi gapda qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq imloviy xatolik mavjud?

A) *Yarasini qandaydir dori bilan kuydiribdi.*

B) *Bu gapni hammaga eshittirib aytdi.*

C) *Kun bo'yi ishlab toliqgan Ilhomjon darrov uxlab qoldi.*

D) *Biz bu qishloqqa ikki marta kelgan edik.*

**7.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

A) *Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham, o'rganmoq kerak.*

B) *Odamda tasavvur bor, shuning uchun nimaningdir yoki kimningdir suratini xayoliga keltira oladi.*

C) *Ey farzand o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutma, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil.*

D) *Samimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*

**8.** *Biz... birov... uyi... mehmon kelsa, yon qo'shnisi, albatta, un... xabar oladi.*
Ushbu gapda nuqtalar o'rnida qaysi kelishik qo'shimchasini qo'llab bo'lmaydi?

A) *jo'nalish* B) *o'rin-payt* C) *tushum*
D) *chiqish*

**9.** Quyidagi gapda ko'p nuqta o'rniga qaysi so'zni qo'yish uslubiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi?
*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko'plab chiroyli bog'lar ...*

A) *farovon qilindi* B) *barpo qilindi*
C) *taxtlab chiqildi* D) *yasaldi*

**10.** Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qatorini belgilang.

A) *tom//orqa, liq//to'la*
B) *bug'doy//rang, suv//talab*
C) *pak//pakana, yilma//yil*
D) *cho'l//yalpiz, har//xil*

## MATEMATIKA

**11.** Chizmadagi shakllarning bo'yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig'indisini hisoblang.



A) $1\frac{1}{2}$

B) $\frac{4}{5}$

C) $\frac{7}{10}$

D) $\frac{2}{3}$

**12.** Tenglamani yeching: $\frac{6}{x} \cdot \frac{9}{16} = \frac{27}{32}$

A) *2*
B) *8*
C) *6*
D) *4*

**13.** O'quvchi 8 ta har xil she'rdan birini ko'pi bilan necha xil usulda tanlab yod olishi mumkin?

A) *4*
B) *1*
C) *7*
D) *8*

**14.** 5,86; 7,04 va 2,1 sonlarining o'rta arifmetik qiymati nechaga teng?

A) *5*
B) *5,25*
C) *4,85*
D) *6*

**15.** Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

A) $10\ m^2 = 1000\ cm^2$
B) $10\ m^2 = 10000\ mm^2$
C) $10\ m^2 = 100\ dm^2$
D) $10\ m^2 = 1000\ dm^2$

**16.** Kub qirrasining uzunligi 4 cm ga teng bo'lsa, uning to'la sirti yuzini ($cm^2$) toping.

A) *96*
B) *128*
C) *64*
D) *144*

**17.** Hisoblang: $2 \cdot (18 - 6) + 3 \cdot (9 - 12)$

A) *15*
B) *39*
C) $-15$
D) *27*

**18.** Ikkita son berilgan. Birinchisi 80 ga teng. Ikkinchi son birinchisidan 20 % ga ortiq bo'lsa, berilgan sonlardan kattasini toping.

A) *16*
B) *64*
C) *96*
D) *80*

**19.** Avtomobil 60 km/h tezlik bilan belgilangan butun yo'lni 3,6 soatda bosib o'tadi. Avtomobil qanday tezlikda (km/h) harakatlansa, belgilangan butun yo'lni 2,4 soatda bosib o'tadi?

A) *85*
B) *80*
C) *90*
D) *95*

**20.** Quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

A) $48 = 8 \cdot 5 + 8$
B) $48 = 7 \cdot 5 + 6$
C) $48 = 6 \cdot 5 + 6$
D) $48 = 6 \cdot 5 + 9$

## O'ZBEKISTON TARIXI

**21.** 1763-yil Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirgan shaxsni aniqlang.

A) *Abdurahimbiy* B) *Abdulkarimbiy*
C) *Norbo‘tabiy* D) *Erdonabiy*

**22.** 1919-yilda tuzilgan Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati boshlig‘i etib tayinlangan shaxsni toping.

A) *Madaminbek* B) *Abdurahmon O‘razayev*
C) *Obidjon Mahmudov*
D) *Ubaydulla Xo‘jayev*

**23.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri "xorazmshoh" unvonini tiklagan?

A) *Qutbiddin Muhammad* B) *Otsiz*
C) *Elarslon* D) *Takash*

**24.** 1864-yil M.Chernyayev qaysi shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida mag‘lubiyatga uchragan?

A) *O‘ratepa* B) *Toshkent* C) *Xiva*
D) *Samarqand*

**25.** Qaysi davrdan boshlab hozirgi qiyofadagi odam – kromanyon odami yashagan?

A) *neolit* B) *o‘rta paleolit* C) *mezolit*
D) *so‘nggi paleolit*

**26.** Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?

A) *dehqon* B) *chokar* C) *kashovarz*
D) *kadivar*

**27.** 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.

A) *Saljuqiylar davlati*
B) *G‘aznaviylar davlati*
C) *Somoniylar davlati*
D) *Qoraxoniylar davlati*

**28.** Shohruxbiy vafotidan keyin Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirgan shaxsni aniqlang.

A) *Erdonabiy* B) *Abdulkarimbiy*
C) *Norbo‘tabiy* D) *Abdurahimbiy*

**29.** XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug‘ullangan?

A) *shayxulislom* B) *mutavalli* C) *mehtar*
D) *mushrif*

**30.** O‘zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.

A) *O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*
B) *O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi*
C) *O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi*
D) *O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *“Ufq” romani Said Ahmad qalamiga mansub trilogiyadir.*

B) *Birovga sog‘insa, har kim yomonlik ul o‘zi topmas omonlik.*

C) *Yoshlikda olingan bilim, o‘g‘lim toshga o‘yilgan naqsh kabidir.*

D) *Ma’rifat izlagan inson – xato qilishdan cho‘chimaydi.*

**2.** Qaysi javobda berilgan so‘zlar o‘zaro ma’nodosh emas?

A) *malomat, ta’na* B) *g‘urur, faxr* C) *halovat, saxovat* D) *iroda, qat’iyat*

**3.** Qaysi gapda maza-ta’m bildiruvchi sifat qatnashgan?

A) *Hovliga kirishimiz bilan rayhonlarning muattar hidi dimog‘imizga urildi.*

B) *Past devorlar ustida ham lolaqizg‘aldoqlar ochilib qolgan edi.*

C) *Dori achchiq edi, bemor xohlamaygina uni qo‘liga oldi.*

D) *O‘sha yili qattiq sovuq bo‘ldi, daraxtlar ham muzlab qoldi.*

**4.** Qaysi javobdagi so‘zlar imloviy jihatdan xato yozilgan?

A) *suhbat, tamoyil* B) *tanaffus, halol* C) *inshaot, sahovat* D) *matbuot, million*

**5.** Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z hol vazifasini bajargan?

A) *<u>Sershovqin</u> ko‘chalarda odamlar daryoday oqadi, xalq shahar maydoni tomon shoshadi.*

B) *Men <u>O‘zbekistonni</u> juda sevaman, uning farzandi ekanligimdan faxrlanaman.*

C) *Bu qizning <u>harakatlarini</u> kuzatar ekan, birdan o‘z bolaligi esiga tushdi.*

D) *Qizcha <u>yelib-yugurib</u> mehmonlarga xizmat qilardi, barchaga birday tabassum bilan boqardi.*

**6.** Quyidagi gapda ko‘p nuqta o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish uslubiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi?
*Sokinlikni xush ko‘radigan Mirzo Ulug‘bek shu keng, . . . xonani ko‘proq xushlar edi.*

A) *tek* B) *shovqinli* C) *jim* D) *osuda*

**7.** Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar berilgan?

A) *xush// fe’l, tog‘ma//tog‘*
B) *multi//ilova, qo‘y//mijoz*
C) *ochiqdan//ochiq, liq//to‘la*
D) *orom//baxsh, dil//tortar*

**8.** *Indamay konduktorning yoni... o‘tib oldim.* Ushbu gapda ko‘p nuqtalar o‘rniga qaysi kelishik qo‘shimchasini qo‘llash uslubiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi?

A) *tushum kelishigi* B) *jo‘nalish kelishigi* C) *qaratqich kelishigi* D) *o‘rin-payt kelishigi*

**9.** Qaysi gapda qatnashgan ***yemoq*** so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

A) *U pulini juda tejab ishlatar, bir kun pishirgan ovqatini uch kun yer edi.*

B) *Qovun yesang, sahar ye,*
*Sahar yemasang, zahar ye.*

C) *O‘rtada turgan palovni birpasda yeb bitirdik.*

D) *Asablarimni yedi, endi chiday olmayman, men ham unga ko‘rsataman.*

**10.** Qaysi so‘zlarning yozilishida bosh harflar imlosiga amal qilingan?

A) *Jahon tinchlik kengashi, “Nuroniy” Jamg‘armasi*

B) *Adliya Vazirligi, Yozuvchilar Uyushmasi Raisi*

C) *8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Xalq ta’limi vazirligi*

D) *Buyuk britaniya, Shirmonbuloq qishlog‘i*

## MATEMATIKA

**11.** To‘g‘ri burchakli parallelepipedning nechta yog‘i bor?

A) *6*

B) *4*

C) *8*

D) *12*

**12.** Chizmadagi kvadratning bo'yalgan sohalari yuzalarining yig'indisini ($m^2$) toping.




A) *40*

B) *44*

C) *45*

D) *46*

**13.** Tenglamani yeching: $7(2-x)=6(1-x)$

A) *7*

B) *9*

C) *8*

D) *6*

**14.** Har bir o'quvchiga 8 tadan darslik kitobi berilsa, 64 ta o'quvchiga jami nechta darslik kitobi beriladi?

A) *9*

B) *512*

C) *8*

D) *506*

**15.** Hisoblang: $3\cdot(21-10)-2\cdot(14-15)$

A) *31*

B) *33*

C) *35*

D) *29*

**16.** $a=(1-0,2)^2$, $b=1-0,2^2$, $c=1-0,2$ sonlarni taqqoslang.

A) $c>b>a$

B) $a>c>b$

C) $b>c>a$

D) $a>b>c$

**17.** Agar daraxt kesuvchi 2 ta daraxtni kesish uchun 1 soat vaqt sarflagan bo'lsa, 9 ta xuddi shunday daraxtni kesishi uchun u necha daqiqa vaqt sarflaydi?

A) *300*

B) *270*

C) *330*

D) *240*

**18.** 2 ta 8 raqami va 1 ta 3 raqamidan nechta turli 3 xonali son tuzish mumkin?

A) *6*

B) *1*

C) *2*

D) *3*

**19.** Metall qotishmasi massasining 56 % ini mis tashkil qiladi. 3 kg qotishmaning necha grammini mis tashkil qiladi?

A) *1500*

B) *1680*

C) *2130*

D) *1860*

**20.** Agar bir fut (tovon) 305 mm ga teng bo'lsa, 2135 mm necha fut (tovon) bo'ladi?

A) *8*

B) *7*

C) *6*

D) *5*

## O'ZBEKISTON TARIXI

**21.** XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga qaysi alloma vatandoshimizning nomi berilgan?

A) *Alouddin Ali Qushchi*
B) *Abu Rayhon Beruniy* C) *Qozizoda Rumiy*
D) *Ahmad al-Farg'oniy*

**22.** Alisher Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida ...ning darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan.

A) *Lutfiy* B) *Boborahim Mashrab*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur* D) *Atoiy*

**23.** 1920-yilda tugatilgan davlatni toping.

A) *Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi*

B) *Xiva xonligi*

C) *O'zbekiston SSR*

D) *Turkiston Muxtoriyati*

**24.** "Shajarayi turk" asari muallifini toping.

A) *Muhammad Solih*

B) *Zahiriddin Muhammad Bobur*

C) *Abulg'oziy Bahodirxon*

D) *Muhammad Shayboniyxon*

**25.** Qaysi davrda inson o'q-yoy yasashni o'rganib oldi?

A) *mezolit* B) *o'rta paleolit* C) *ilk paleolit*
D) *so'nggi paleolit*

**26.** 1885-yil Buxoro amirligining Baljuvon bekligida bo'lib o'tgan dehqonlar qo'zg'oloniga kim rahbarlik qilgan?

A) *Po'latxon* B) *Vose* C) *Iso Avliyo*
D) *Darvishxon*

**27.** Oqmachit qal'asi rus qo'shinlari tomonidan egallangach, unga qanday nom berilgan?

A) *Perovskiy forti* B) *Chernyayev forti*
C) *Veryovkin forti* D) *Verniy forti*

**28.** XVI asr oxirida kimning hukmronligi davrida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylangan?

A) *Abulg'oziyxon* B) *Ismoil Safaviy*
C) *Muhammad Shayboniyxon*
D) *Abdullaxon II*

**29.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra quyidagi qaysi shaharda Islom Karimov haykali o'rnatilgan?

A) *Samarqand* B) *Buxoro* C) *Xiva*
D) *Termiz*

**30.** VIII asr boshlarida arablarning Movarounnahrga harbiy yurishlariga boshchilik qilgan shaxsni toping.

A) *Muoviya I* B) *Rofe ibn Lays*
C) *Ubaydulloh ibn Ziyod*
D) *Qutayba ibn Muslim*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi gapdagi boshqa so‘zi "yana", "qayta", "takroran" ma’nolarida qo‘llangan?

A) *Bu boshqa gap, endi xato qilmaslikka harakat qilinglar.*

B) *Bu hol boshqa qaytarilmasin, aks holda, endi sizlarni ayab o‘tirmayman.*

C) *Bu haqida boshqa fikr bo‘lmagani uchun masalaga jiddiy yondashilmagan edi.*

D) *Bu gapga Karimjondan boshqa hech kim qarshilik qilmadi.*

**2.** Qaysi javobda berilgan so‘zlar juftligi o‘zaro ma’nodosh so‘zlar hisoblanadi?

A) *olis – yaqin* B) *uzun – kalta*
C) *ranj – alam* D) *adl – adil*

**3.** Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi bilan bog‘liq imloviy xatolik mavjud?

A) *Bu gap osmonlarda uchib yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.*

B) *Shimoldan esgan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.*

C) *Og‘ir mehnat uni nihoyatda toliqdirib qo‘ygan edi.*

D) *Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.*

**4.** Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping.

A) *maqtamoq, minnatdor*
B) *tassavur, inshoat* C) *favvora, aloxida*
D) *dorvoz, ravnag‘*

**5.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z aniqlovchi vazifasini bajargan?

A) *Bolalar yangi bog‘da o‘ynayotgan edilar.*

B) *Yuzaki o‘ylagan odam yutqazadi.*

C) *U eski ko‘ylagining tugmasini olib, o‘zini tashlab yubordi.*

D) *Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat.*

**6.** Qaysi gapda vergulning qo‘llanish qoidalariga amal qilingan?

A) *Biz bugun, albatta, g‘alaba qozonamiz.*

B) *Bu fikrga qo‘shilmadi balki, jon-jahdi bilan qarshi chiqdi.*

C) *Bu safar Nazira ham, Nodira ham, biz bilan, bordi.*

D) *Bizga kitob, daftar, qalam, kerak.*

**7.** Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar berilgan?

A) *erk//talab, tele//tanlov*
B) *rang//barang, xush//manzara*
C) *adirma//adir, Bo‘z//suv*
D) *taklif//qil, har//vaqt*

**8.** Qaysi javobda ilmiy uslubga oid gap berilgan?

A) *Fe’llar harakat va holat ma’nosini bildiruvchi so‘zlardir.*

B) *Yomg‘irdan keyin bulutlar orasidan quyosh mo‘ralab qaraydi.*

C) *Muxbirimizning xabar berishicha, yurtdoshlarimiz saylovda faol qatnashmoqda.*

D) *Tadbir har oyning juma kunida o‘tkazilishiga ma’muriyat kafolat beradi.*

**9.** Qaysi gapda tushum kelishigini tushirib qo‘llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Ertasi kuni maktabga borganida kutubxonadan qushlar haqida yozilgan kitobni oldi.*

B) *Qarasak, bitta jonivor to‘rni yirtib chiqib ketishga harakat qilar, ammo uddasidan chiqa olmas edi.*

C) *U kitobni o‘qishga berilib ketganidan qorong‘i tushganiga ham e’tibor bermasdi.*

D) *Narsalarining ichidan o‘zining nomiga yozilgan xatni topib oldi.*

**10.** Qaysi javobda payt bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

A) *ertalab, bafurja, majburan*

B) *har gal, allamahal, hanuz*

C) *jimgina, ertadan, buguncha*

D) *hamisha, allamahal, noiloj*

## MATEMATIKA

**11.** Chizmadan eng uzun kesmani toping.
$AB \parallel CD$, $AB \parallel KN$




A) $EF$

B) $CD$

C) $KN$

D) $AB$

**12.** Hisoblang: $2 \cdot (18 - 10) + 3 \cdot (15 - 12)$

A) *30*

B) *15*

C) *25*

D) *20*

**13.** Hisoblang: $9,75 + 2,3 + 6,72 - (+2,3) + $
$+ (-(-0,25)) + (-6,72) - 10.$

A) *0*

B) *1*

C) *2*

D) $-1$

**14.** Tenglamani yeching: $-5 : x = \dfrac{1}{2}$

A) $-10$

B) *10*

C) $-5$

D) *5*

**15.** Quyidagi sonlardan qaysi biri 9 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

A) *6013*

B) *7701*

C) *2017*

D) *8001*

**16.** 9786 sonining raqamlari o‘rnini almashtirib eng kichik sonni hosil qiling.

A) *6789*

B) *6987*

C) *6879*

D) *6897*

**17.** Chizmadagi jismning hajmini ($cm^3$) toping.




A) *216*

B) *192*

C) *198*

D) *180*

**18.** Soat 7:45 bo‘lgan vaqtdan necha daqiqa vaqt o‘tgach soat 9:15 bo‘ladi?

A) *90*

B) *85*

C) *89*

D) *80*

**19.** Skuter narxi 9850000 so‘m. Skuterni 20 % chegirma bilan necha so‘mga sotib olish mumkin?

A) *7800000*

B) *8000000*

C) *7880000*

D) *7900000*

**20.** Har kuni ovqat tayyorlashga 0,5 litrdan yog‘ ishlatilsa, 3 litr yog‘ necha kunga yetadi?

A) *6*

B) *7*

C) *8*

D) *9*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** Somoniylar davlatida xalqaro savdo-sotiqda ishlatilgan kumush tangalar nima deb atalgan?

A) *fulusi adliya* B) *fals* C) *dirham*
D) *kepaki*

**22.** Sulton Ahmad davrida Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzoga qaysi hududlar qo'shib berilgan?

A) *Farg'ona va Xo'jand*
B) *Toshkent va Sayram*
C) *Turkiston va Taroz* D) *Axsi va Kesh*

**23.** XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida xon qarorgohi qaysi shaharda joylashgan?

A) *Tuproqqal'a* B) *Xiva* C) *Hazorasp*
D) *Nukus*

**24.** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlangan shaxsni aniqlang.

A) *F.Girs* B) *M.Skobelev* C) *P.Lessar*
D) *S.M.Duxovskoy*

**25.** 1018 ta qo'zg'almas yulduzning o'rni va holatini aniqlab, ularning astronomik jadvalini tuzgan olimni aniqlang.

A) *Mirzo Ulug'bek* B) *Ali Qushchi*
C) *Abu Rayhon Beruniy* D) *Qozizoda Rumiy*

**26.** General-mayor Sobir Rahimov 1945-yil 26-martda qaysi shaharni shturm qilishda halok bo'lgan?

A) *Moskva* B) *Kursk* C) *Gdansk*
D) *Stalingrad*

**27.** Sug'd yozuvi qaysi qadimgi yozuv asosida vujudga kelgan?

A) *oromiy yozuvi* B) *toxar yozuvi*
C) *xorazm yozuvi* D) *baqtriya yozuvi*

**28.** 1997-yil xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan qaysi shaharning 2500 yilligi mamlakatimizda keng nishonlangan?

A) *Shahrisabz* B) *Xiva* C) *Qarshi*
D) *Samarqand*

**29.** 1557-1558-yillarda kimning hukmronligi davrida Buxorodan Moskvaga elchilar yuborilgan?

A) *Amir Temur* B) *Abulg'oziyxon*
C) *Ismoil Somoniy* D) *Abdullaxon II*

**30.** 1441-1501-yillarda yashagan tarixiy shaxsni aniqlang.

A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
B) *Amir Temur* C) *Mirzo Ulug'bek*
D) *Alisher Navoiy*

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** Kesim ajratib ko‘rsatilgan gapni toping.

A) *Xonaga shoshib kirgan yigit biroz o‘ng‘aysiz ahvolga tushdi.*

B) *U o‘z ishini juda pishiq bajargan, xatosini topolmaysiz.*

C) *Yasanib olgan Naziraxon chiqib keldi.*

D) *O‘ylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.*

**2.** Qaysi gapda tushum kelishigini tushirib qo‘llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Narsalarining ichidan o‘zining nomiga yozilgan xatni topib oldi.*

B) *U kitobni o‘qishga berilib ketganidan qorong‘i tushganiga ham e’tibor bermasdi.*

C) *Ertasi kuni maktabga borganida kutubxonadan qushlar haqida yozilgan kitobni oldi.*

D) *Otam yo‘qolgan qo‘yimizni qidirib tuni bilan mijja qoqmadi, tongga yaqin topib keldi.*

**3.** Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping.

A) *munosibat, muvoffiq*
B) *mustahkam, ma’ruza*
C) *paskashlik, loyixa* D) *qarong‘i, soviq*

**4.** Qaysi so‘zlar ravish turkumiga mansub?

A) *vijdonan, hech qanday*
B) *mardona, to‘yona* C) *hech nima, har gal*
D) *darrov, majburan*

**5.** Qaysi gapda bosh harflar imlosiga amal qilingan?

A) *Erkin Vohidov Farg‘ona Viloyatining Oltiariq tumanida tavallud topgan.*

B) *O‘zbekiston Xalq Shoiri Erkin Vohidov 1964-yil “Nido” dostonini yaratdi.*

C) *Erkin Vohidov “Ruhlar Isyoni” dostonining muallifidir.*

D) *Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan.*

**6.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z “o‘git, pand-nasihat” ma’nolarida qo‘llangan?

A) *Bu gap tarkibidagi bir nechta so‘z o‘z o‘rnida qo‘llanmagan ekan.*

B) *Do‘st so‘zini tashlama, tashlab boshing qashlama.*

C) *Shu voqea sababli orangizdan biror so‘z o‘tdimi, ancha xafa ko‘rinasan?*

D) *Menga ishoning, bu haqida hech kimga aytmaslikka so‘z beraman.*

**7.** Qaysi javobda so‘z va ibora ma’nodoshligi berilgan?

A) *aytib bermoq – bayon qilmoq*

B) *ko‘zini shira bosgan – dimog‘i ko‘tarilgan*

C) *lapashang – landavur*

D) *xursand bo‘lmoq – do‘ppisini osmonga otmoq*

**8.** Qaysi javobda rasmiy uslubga oid gap berilgan?

A) *– Ke, picha dam ol, qo‘zichog‘im, toza charchabsan.*

B) *Hazrat Alisher Navoiy Hirotning ma’naviy quyoshi edi.*

C) *Ushbu ma’lumotnoma so‘ralgan joyga taqdim etish uchun berildi.*

D) *Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.*

**9.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *Kishini g‘azab yoki shunga o‘xshash his egallasa; uning qabul qilgan qarori albatta noto‘g‘ri bo‘ladi.*

B) *Hayotning boshqalar ko‘rmagan tomonini ko‘rish ham – talant.*

C) *Shunday harakat qilingki – birovga yuk bo‘lmang balki hamroh bo‘ling.*

D) *Haqiqiy olimning so‘zi, o‘yi, fikri va ishi bir xil bo‘ladi.*

**10.** Ajratib yoziladigan qo‘shma so‘zlar qatorini toping.

A) *hamma//vaqt, isrof//qilmoq*
B) *savdo//sotiq, ichak//uzdi*
C) *ko‘rmoqchi//emish, xon//taxta*
D) *tele//ko‘rsatuv, sap//sariq*

## MATEMATIKA

**11.** Xaridor 4 ta har xil shokoladlardan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlab, sotib olishi mumkin?

A) *3*
B) *2*
C) *4*
D) *1*

**12.** Benzin baki va kanistrning hajmlari mos ravishda 9:1 nisbatda. Benzinga to‘la bakni bo‘shatish uchun eng kamida nechta (hajmi dastlabki kanistr hajmi bilan bir xil bo‘lgan) kanistr kerak bo‘ladi?

A) *9*
B) *7*
C) *8*
D) *10*

**13.** Quyidagi sonlardan qaysi biri 84 sonining natural bo‘luvchisi bo‘la olmaydi?

A) *16*
B) *21*
C) *12*
D) *14*

**14.** Tenglamani yeching: $\dfrac{1}{2-x} = \dfrac{3}{4+x}$

A) $\frac{1}{3}$
B) $\frac{1}{2}$
C) $\frac{2}{3}$
D) $\frac{1}{4}$

**15.** To‘g‘ri burchakli parallelepipedning bo‘yi, eni va balandligi mos ravishda 8 cm, 5 cm va 10 cm ga teng bo‘lsa, uning hajmini (cm$^3$) toping.

A) *400*
B) *250*
C) *425*
D) *430*

**16.** 5 sutka necha minutga teng?

A) *7200*
B) *3600*
C) *1540*
D) *1800*

**17.** 2907 soni quyidagi sonlardan qaysi biriga qoldiqsiz bo‘linadi?

A) *27*
B) *9*
C) *11*
D) *23*

**18.** Hisoblang: $\left(1 - 2\frac{1}{3}\right) \cdot 6 + 12$

A) *5*
B) *3*
C) *6*
D) *4*

**19.** Metall qotishmasi massasining o‘rtacha $\frac{2}{5}$ qismini temir tashkil qiladi. 70 kg li metall qotishmasining o‘rtacha necha kilogrammini temir tashkil qiladi?

A) *24 kg*
B) *30 kg*
C) *35 kg*
D) *28 kg*

**20.** Rasmdan foydalanib $ABC$ burchakning gradus o‘lchovini toping.




A) *110°*
B) *100°*
C) *130°*
D) *120°*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** 1875-yil Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bilan shartnoma imzolagan Qo‘qon hukmdorini toping.

A) *Sheralixon* B) *Nasriddinbek*
C) *Xudoyorxon* D) *Norbo‘tabiy*

**22.** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakilining qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?

A) *Buxoro* B) *Samarqand* C) *Kogon*
D) *Kattaqoʻrgʻon*

**23.** 2003-yilda qaysi alloma tavalludining 900 yilligi keng nishonlangan?

A) *Mirzo Ulugʻbek* B) *Imom al-Buxoriy*
C) *Amir Temur* D) *Abduxoliq Gʻijduvoniy*

**24.** Qoraxoniylar davlatida viloyatlarni kimlar boshqargan?

A) *kutvol* B) *arslonxon* C) *eloqxonlar*
D) *amid*

**25.** 1917-yil 14-martda Toshkent shahrida Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan tuzilgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotni toping.

A) *"Shoʻroi Islomiya"* B) *"Taraqqiy"*
C) *"Kengash"* D) *"Ittifoqi muslimin"*

**26.** Moʻgʻullarga qarshi kurash olib borgan Temur Malik quyidagi qaysi shahar hokimi edi?

A) *Xoʻjand* B) *Oʻtror* C) *Buxoro*
D) *Samarqand*

**27.** Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida oʻz mustaqilligini saqlab qolgan davlat(hudud)ni toping.

A) *Margʻiyona* B) *Xorazm* C) *Soʻgʻdiyona*
D) *Baqtriya*

**28.** V asr boshlarida Oʻrta Osiyo hududiga Sharqdan kirib kelgan qabilani toping.

A) *qarluqlar* B) *eftallar* C) *xioniylar*
D) *oʻgʻuzlar*

**29.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri Qoʻqondagi minglar sulolasiga asos solgan?

A) *Abdulkarimbiy* B) *Erdonabiy*
C) *Shohruxbiy* D) *Abdurahimbiy*

**30.** 1480-yil Oʻzbek ulusi davlatini qayta tiklagan shaxsni aniqlang.

A) *Shohbudogʻ Sulton* B) *Mahmud Sulton*
C) *Abu Said* D) *Muhammad Shayboniyxon*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** *Tog'lar qo'ynidadir mening qishlog'im,*
*Cho'qqilari osha ko'rinar olam.*
Ushbu she'riy parchadagi kesim(lar)ni toping.

A) *qo'ynidadir, ko'rinar* B) *qishlog'im, olam*
C) *qishlog'im, ko'rinar* D) *osha, ko'rinar*

**2.** *Biz... birov... uyi... mehmon kelsa, yon qo'shnisi, albatta, un... xabar oladi.*
Ushbu gapda nuqtalar o'rnida qaysi kelishik qo'shimchasini qo'llab bo'lmaydi?

A) *jo'nalish* B) *chiqish* C) *o'rin-payt*
D) *tushum*

**3.** Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) *qanoat, madad* B) *sharoit, taraqqiyot*
C) *muovin, maxfiy*
D) *xushmuomila, tushinmoq*

**4.** Qaysi javobda ajratib yoziladigan so'zlar berilgan?

A) *umum//milliy, shirin//so'z*
B) *qabul//xona, viloyatlar//aro*
C) *och//sariq, har//xil*
D) *ko'z//oynak, kunma//kun*

**5.** Qaysi gapda o'zaro ma'nodosh so'zlar ishtirok etgan?

A) *Quyosh chiqdi, gul yaprog'iga*
*Tunda qo'ngan shabnam aridi.*

B) *Qon yugurdi ol yonog'iga,*
*Bargi g'ubor – changdan aridi.*

C) *Gunafshalar qulog'imga madhingni*
*So'zlab-so'zlab charchadilar, bitmadi.*

D) *Bolangga ham, uyingga ham qara, ham dam ol.*

**6.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

A) *Ey farzand o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutma, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil.*

B) *Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir, yoki kimningdir suratini keltira oladi.*

C) *Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham, o'rganmoq kerak.*

D) *Samimiylik ham xuddi zehn, husn va aql kabi ehson.*

**7.** Qaysi javobda qo'shma sifatlar berilgan?

A) *devsifat, sovuqmijoz*
B) *serg'ayrat, kaltafahm*
C) *orzumand, balandparvoz*
D) *suvilon, shirinzabon*

**8.** Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) *<u>Buloqning</u> ko'zi qayta ochildi, obihayot jildirab-jildirab oqardi.*

B) *G'amdan o'rtangan <u>tanbur</u> ovozi uni allaqayoqlarga olib ketgandek bo'ldi.*

C) *U yoshlikdagi <u>qadrdon</u> o'rtog'ini juda sog'ingan ekan, gaplashib to'ymasdi.*

D) *<u>Ma'yus</u> majnuntollar ularni hamon kutishayotgan ekanmi?*

**9.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *Ishdan kech qaytkan G'ayratjonni qo'shnisi kutib oldi.*

B) *O'sha tog'ga borishni biz ham orzu qilar edik.*

C) *Biz tong otkuncha shu yerda kutishga qaror qildik.*

D) *Ertalab hammamizni oshka aytib ketishdi.*

**10.** Quyidagi gapda ko'p nuqta o'rniga qaysi so'zni qo'yish uslubiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi?
*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko'plab chiroyli bog'lar ...*

A) *yasaldi* B) *taxtlab chiqildi*
C) *barpo qilindi* D) *farovon qilindi*

## MATEMATIKA

**11.** Kubning qirrasi 5 dm bo'lsa, hajmini ($dm^3$) toping.

A) *125*

B) *1000*

C) *512*

D) *729*

**12.** 7,37; 5,45 va 2,18 sonlarining o'rta arifmetik qiymati nechaga teng?

A) *5*

B) *6*

C) *7*

D) *4*

**13.** Chizmadagi shakllarning bo‘yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig‘indisini hisoblang.



A) $\frac{4}{5}$

B) $\frac{2}{3}$

C) $1\frac{1}{2}$

D) $\frac{7}{10}$

**14.** Oilada 4 kishi bor. Ulardan har birining tug‘ilgan kunida qolganlarining har biri bittadan sovg‘a berishadi. Bir yilda bu oilada (tug‘ilgan kun uchun yig‘ilgan) jami sovg‘alar soni eng ko‘pi bilan nechta bo‘ladi?

A) *8*

B) *12*

C) *16*

D) *4*

**15.** Ikkita son berilgan. Birinchisi 80 ga teng. Ikkinchi son birinchisidan 20 % ga ortiq bo‘lsa, berilgan sonlardan kattasini toping.

A) *96*

B) *16*

C) *80*

D) *64*

**16.** Tenglamani yeching: $\frac{7}{8-x} = \frac{10}{9+x}$

A) *0*

B) *2*

C) *3*

D) *1*

**17.** Seyf (po‘lat sandiq)ning hajmi 1 $m^3$ ga teng. Bu seyfning 20000 $cm^3$ hajmiga teng bo‘lgan qismida buxgalterga va 80000 $cm^3$ hajmiga teng bo‘lgan qismida esa direktorga tegishli bo‘lgan hujjatlar saqlanadi. Bu seyfning qancha hajmi ($cm^3$) bo‘sh qolgan?

A) *900000*

B) *990000*

C) *90000*

D) *800000*

**18.** Nol raqami 482068 sonining qaysi xona birligida joylashgan?

A) *yuz minglar*

B) *o‘n minglar*

C) *minglar*

D) *yuzlar*

**19.** Avtomobil 60 km/h tezlik bilan belgilangan butun yo‘lni 3,6 soatda bosib o‘tadi. Avtomobil qanday tezlikda (km/h) harakatlansa, belgilangan butun yo‘lni 2,4 soatda bosib o‘tadi?

A) *95*

B) *80*

C) *90*

D) *85*

**20.** Nuqtalar o‘rniga qaysi eng katta butun sonni qo‘ysak, $225 - \ldots > 144$ tengsizlik to‘g‘ri bo‘ladi?

A) *−140*

B) *80*

C) *82*

D) *81*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** Buxoro xonligida xon va shahzodalar o‘rtasidagi munosabatlar masalasi bilan qaysi mansabdagi amaldor shug‘ullangan?

A) *mehtar* B) *xon yasovuli* C) *dodxoh* D) *ko‘kaldosh*

**22.** Quyida sanab o‘tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?

A) *Rafiq Nishonov* B) *Abdulla Avloniy*
C) *Inomjon Usmonxo‘jayev*
D) *Islom Karimov*

**23.** Buyuk Ipak yo‘li faoliyati nechanchi asrgacha davom etgan?

A) *XVIII asrgacha* B) *XVI asrgacha*
C) *XIX asrgacha* D) *XVII asrgacha*

**24.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri "xorazmshoh" unvonini tiklagan?

A) *Qutbiddin Muhammad* B) *Otsiz*
C) *Takash* D) *Elarslon*

**25.** Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?

A) *barzikorlar* B) *yarimchilar* C) *vaqfchilar*
D) *bevatanlar*

**26.** Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?

A) *dehqon* B) *chokar* C) *kashovarz*
D) *kadivar*

**27.** 1810-yilda Toshkentni Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shib olgan hukmdorni aniqlang.

A) *Olimxon* B) *Xudoyorxon*
C) *Muhammad Ali* D) *Norbo‘tabiy*

**28.** XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug‘ullangan?

A) *mehtar* B) *mushrif* C) *mutavalli*
D) *shayxulislom*

**29.** 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda qaysi buyuk vatandoshimiz tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi?

A) *Amir Temur* B) *Mirzo Ulug‘bek*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
D) *Jaloliddin Manguberdi*

**30.** Quyidagilardan kim qoraqo‘yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan?

A) *Boyazid Yildirim* B) *Amir Xudoydot*
C) *Amir Husayn* D) *Amirak Ahmad*

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** Qaysi javobdagi birikmada ko‘chma ma’noda qo‘llangan narsa bildiruvchi so‘z qatnashgan?

A) *choynakni tozalamoq* B) *aybini yuvmoq*
C) *iliq munosabat* D) *uzukning ko‘zi*

**2.** Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar berilgan?

A) *ish//yoqmas, Uch//qo‘rg‘on*
B) *havo//rang, qo‘l//qop*
C) *sarf//qil, kundan//kunga*
D) *nano//texnologiya, yam//yashil*

**3.** Qaysi gapdagi ayirmoq so‘zi "turli ko‘z bilan qaramoq" ma’nosida qo‘llangan?

A) *Bu ikki kasallikni bir-biridan ayira olmasangiz, o‘zingizcha davolanishga harakat qilmang.*

B) *Siz odam ayirmang, biz hammamiz sizning xodimlaringiz sanalamiz.*

C) *Qo‘shnilarning bu gapi Malika opani es-hushidan ayirdi, devorga majolsiz suyanib qoldi.*

D) *Ikki do‘stning hazili janjalga aylanib ketdi, Nodirjon ularni zo‘rg‘a ayirib qo‘ydi.*

**4.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *Bu holat uzoqqa bormaydi, bilib qo‘ying.*

B) *Dadam uyimizda sayroqi qush asrashni yoqdirardi.*

C) *Anjumanda mashhur shoirning ishtirogi bizga quvonch baxsh etdi.*

D) *To‘pni unga qarata otkan edim, ammo yetib bormadi.*

**5.** Qaysi javobda so‘z va ibora ma’nodoshligi berilgan?

A) *gapirmaslik – og‘ziga olmaslik*

B) *hafsalasi pir bo‘lmoq – tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq*

C) *ko‘zi ilinmoq – pinakka ketmoq*

D) *uxlab qolmoq – mizg‘imoq*

**6.** Qaysi gapda qaratqich kelishigini tushirib qo‘llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Bu Navoiyning g‘azaliga nazira tarzida yozilgan she’r edi.*

B) *Otaning yuziga tik boqib gapiradigan farzandlarga bu voqea ibrat bo‘lsin.*

C) *Siz bu ishingiz bilan uning jinoyatiga sherik bo‘lib qoldingiz, uka.*

D) *Ona yerning bag‘ridan unib chiqqan boychechaklar misoli nafis edi.*

**7.** Qaysi gapda ravishning faqat payt ma’no turi qatnashgan?

A) *Shu vaqt nima uchundir ichkarida o‘tirganlar sharaqlab kulib yubordi.*

B) *Keyin sal hushimni yig‘ib qarasam, oyoqlarim go‘yo o‘zidan o‘zi yurib ketyapti.*

C) *Endi suv ichaman deb engashgan edim, changalzor asta shitirlagandek bo‘ldi.*

D) *O‘ylab qarasam, avvallari yashash uchun yozgan ekanman, endi esa yozish uchun yashayapman.*

**8.** Hol ajratib ko‘rsatilgan gapni toping.

A) *Bizga ham shunday kunlar ato etsin, farzandlar kamolini ko‘raylik.*

B) *Bizning yurtimiz boy, tog‘larimizda bebaho ma’danlar ko‘p.*

C) *Yo‘qotilgan vaqtni ortga qaytarib bo‘lmaydi.*

D) *Tabiatni avaylab-asraylik, avlodlarga omon yetkazaylik.*

**9.** Qaysi gapda tinish belgisini qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud?

A) *Takrorlash – bilimning onasi.*

B) *Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.*

C) *O‘g‘lim, Nosirjon sizga muhim topshiriq bor.*

D) *Suv keldi – nur keldi.*

**10.** Xato yozilgan so‘zlar qatorini toping.

A) *unsur, parlament* B) *hukumat, kompyuter*
C) *ahdnoma, millioner* D) *maxalliy, kridit*

### MATEMATIKA

**11.** 1260000 so‘mning 20 %i necha so‘m bo‘ladi?

A) *242000*

B) *232000*

C) *262000*

D) *252000*

**12.** Agar bir qarich (taqribiy) 22 cm bo‘lsa, 308 cm necha qarich bo‘ladi?

A) *16*

B) *12*

C) *13*

D) *14*

**13.** Simdan eni 12 cm, bo‘yi 14 cm va balandligi 18 cm bo‘lgan to‘g‘ri burchakli parallelepiped (qirralari) yasalgan. Buning uchun necha santimetr sim ishlatilgan?

A) *198*

B) *220*

C) *132*

D) *176*

**14.** Rasmda jami nechta to‘g‘ri to‘rtburchak tasvirlangan?



A) *3*

B) *4*

C) *5*

D) *6*

**15.** Hisoblang: $16 \cdot 6 + 4 \cdot 16$

A) *140*

B) *160*

C) *150*

D) *144*

**16.** Hisoblang: $\left(10\frac{1}{2} - 7\frac{1}{3}\right) : \frac{19}{12}$

A) *2*

B) *2,5*

C) *3*

D) *1,5*

**17.** Tenglamani yeching: $-3 : x = \frac{1}{2}$

A) $-6$

B) *6*

C) *3*

D) $-3$

**18.** Avtomobil 100 km yo‘l yursa, o‘rtacha 8 litr benzin sarflaydi. Avtomobil 550 km yo‘l yursa, o‘rtacha necha litr benzin sarflaydi?

A) *46*

B) *40*

C) *44*

D) *42*

**19.** 965412 soni necha xonali son hisoblanadi?

A) *2*

B) *6*

C) *5*

D) *4*

**20.** Hasan 8 ta har xil kitobdan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlab olishi mumkin?

A) *8*

B) *7*

C) *1*

D) *4*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** 1917-yilda quyidagi qaysi shaharda bo‘lib o‘tgan Butunturkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e’lon qilingan?

A) *Buxoro* B) *Qo‘qon* C) *Samarqand* D) *Toshkent*

**22.** “Teatr – bu ibratxonadir” degan fikr qaysi jadid namoyandasiga tegishli?

A) *Abdulla Qodiriy* B) *Fayzulla Xo‘jayev* C) *Mahmudxo‘ja Behbudiy* D) *Abdulhamid Cho‘lpon*

**23.** Qutayba qo‘shinlari Samarqandga hujum qilgan vaqtda kim Sug‘d podshosi edi?

A) *Chag‘on* B) *Hurzod* C) *G‘urak* D) *Divashtich*

**24.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasida qabul qilingan qonunni toping.

A) *“O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”*

B) *“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”*

C) *“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”*

D) *“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”*

**25.** 1878-yilda qaysi hududda mustamlakachilar zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan?

A) *Mingtepada* B) *Toshkentda*
C) *Samarqandda* D) *Namanganda*

**26.** Buxoro xonligida hukmronlik qilgan so‘nggi shayboniy hukmdorni toping.

A) *Ubaydullaxon* B) *Pirmuhammad II*
C) *Navro‘z Ahmadxon* D) *Abdullaxon II*

**27.** Qaysi dostonda qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan?

A) *"Edigey"* B) *"Qirqqiz"*
C) *"Alpomish"* D) *"Bo‘zatov"*

**28.** 1365-yil Amir Temur va Ilyosxo‘ja qo‘shinlari o‘rtasidagi jang tarixda qanday nom bilan shuhrat topdi?

A) *"Tarak daryosi bo‘yidagi jang"*
B) *"Parvon jangi"* C) *"Anqara jangi"*
D) *"Loy jangi"*

**29.** Qadimgi bitiklarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi maxsus fanni toping.

A) *geraldika* B) *lingvistika* C) *epigrafika*
D) *numizmatika*

**30.** “Musiqa kitobi” asari muallifini toping.

A) *Abu Nasr Farobiy* B) *Ahmad al-Farg‘oniy*
C) *Abu Ali ibn Sino*
D) *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** Qaysi javobda berilgan so‘zlar juftligi o‘zaro ma’nodosh so‘zlar hisoblanadi?

A) *adl – adil* B) *ranj – alam*
C) *uzun – kalta* D) *olis – yaqin*

**2.** Qaysi javobda berilgan so‘zlar ajratib yozilishi kerak?

A) *dev//sifat, sovuq//mijoz*
B) *tim//qora, har//zamon*
C) *to‘q //qizil, dardi//sar*
D) *hamma//yoq, taklif//noma*

**3.** Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi bilan bog‘liq imloviy xatolik mavjud?

A) *Bu gap osmonlarda uchib yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.*

B) *Og‘ir mehnat uni nihoyatda toliqdirib qo‘ygan edi.*

C) *Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.*

D) *Shimoldan esgan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.*

**4.** Qaysi gapda vergulning qo‘llanish qoidalariga amal qilingan?

A) *Biz bugun, albatta, g‘alaba qozonamiz.*

B) *Bu safar Nazira ham, Nodira ham, biz bilan, bordi.*

C) *Bu fikrga qo‘shilmadi balki, jon-jahdi bilan qarshi chiqdi.*

D) *Bizga kitob, daftar, qalam, kerak.*

**5.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z aniqlovchi vazifasini bajargan?

A) *Bolalar yangi bog‘da o‘ynayotgan edilar.*

B) *U eski ko‘ylagining tugmasini olib, o‘zini tashlab yubordi.*

C) *Yuzaki o‘ylagan odam yutqazadi.*

D) *Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat.*

**6.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z payt ma’nosini bildirgan?

A) *Sarvigulni podsho hammadan ko‘proq sevar ekan.*

B) *Bu gapdan ruhlangan yigitlar olg‘a yurishibdi va manzilga yetib borishibdi.*

C) *Yigitlar nari-beri ovqatlanishdi-yu, darhol uxlagani yotdilar.*

D) *"Keyin u yoqqa o‘tamiz", – deb o‘ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi.*

**7.** Qaysi gapda tushum kelishigini tushirib qo‘llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Ertasi kuni maktabga borganida kutubxonadan qushlar haqida yozilgan kitobni oldi.*

B) *Narsalarining ichidan o‘zining nomiga yozilgan xatni topib oldi.*

C) *U kitobni o‘qishga berilib ketganidan qorong‘i tushganiga ham e’tibor bermasdi.*

D) *Qarasak, bitta jonivor to‘rni yirtib chiqib ketishga harakat qilar, ammo uddasidan chiqa olmas edi.*

**8.** Qaysi javobda ilmiy uslubga oid gap berilgan?

A) *Muxbirimizning xabar berishicha, yurtdoshlarimiz saylovda faol qatnashmoqda.*

B) *Fe’llar harakat va holat ma’nosini bildiruvchi so‘zlardir.*

C) *Yomg‘irdan keyin bulutlar orasidan quyosh mo‘ralab qaraydi.*

D) *Tadbir har oyning juma kunida o‘tkazilishiga ma’muriyat kafolat beradi.*

**9.** Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

A) *Yaqinginasida shovullab oqayotgan katta daryo, uning yoqasida cho‘ponlarning o‘tovi tikilgan.*

B) *Og‘riqdan yuzi qizarib ketdi, biror bahona topib bu yerdan chiqib ketishga harakat qildi.*

C) *G‘azabdan qaltirab momaqaldiroq,*

*Boshiga osmonni qulatishga shay.*

D) *U ancha keksayib qolgan otasini davolatish uchun bu yerga olib kelgan edi.*

**10.** Qaysi javobdagi so'zlar to'g'ri yozilgan?
A) *tabiyat, taomil* B) *joyiz, muommo*
C) *muattar, mutoala* D) *muallim, doira*

## MATEMATIKA

**11.** To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi, eni va balandligi mos ravishda 9 cm, 5 cm va 10 cm ga teng bo'lsa, uning hajmini ($cm^3$) toping.

A) *450*
B) *455*
C) *435*
D) *445*

**12.** Tenglamani yeching: $-5 : x = \frac{1}{2}$

A) $-10$
B) *5*
C) *10*
D) $-5$

**13.** Hisoblang: $2 \cdot (18 - 10) + 3 \cdot (15 - 12)$

A) *25*
B) *15*
C) *30*
D) *20*

**14.** Ellik ming so'mlik puldan nechtasi uch million so'mni tashkil qiladi?

A) *60*
B) *600*
C) *120*
D) *6000*

**15.** 9786 sonining raqamlari o'rnini almashtirib eng kichik sonni hosil qiling.

A) *6879*
B) *6987*
C) *6897*
D) *6789*

**16.** Shaklning perimetrini hisoblang.




A) *52*
B) *58*
C) *57*
D) *56*

**17.** Hisoblang: $9,75 + 2,3 + 6,72 - (+2,3) + $
$+ (-(-0,25)) + (-6,72) - 10.$

A) *2*
B) *0*
C) $-1$
D) *1*

**18.** 32 soni 160 sonining qancha qismini tashkil qiladi?

A) $\frac{2}{5}$
B) $\frac{1}{5}$
C) $\frac{1}{4}$
D) $\frac{1}{2}$

**19.** $\frac{21}{49} = \frac{x}{7}$ proporsiyaning $x$-noma'lum hadini toping.

A) *3*
B) *4*
C) *7*
D) *2*

**20.** Chizmadagi silindrsimon idishga jami 12 $l$ suv bo'lgan. Idishdan ma'lum miqdorda suv olingan. Idishda qancha suv (litr) qolgan?




A) *7*

B) *6*

C) *8*

D) *9*

## O'ZBEKISTON TARIXI

**21.** Qal'a shaklida qurilgan quyidagi shaharlardan qaysi biri qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan me'moriy madaniyat yodgorligi hisoblanadi? (Uch xonliklar davri)

A) *Tuproqqal'a* B) *Eshonqal'a*
C) *Qo'yqirilganqal'a* D) *Jonbosqal'a*

**22.** Ahmad Donish Buxoroning qaysi amiri haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan?
*"U amirlik qalamini kambag'allik kiyimi bilan bezadi. Jahon bog'idan dushmanlik va yomonlikni tomiri bilan sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tqazdi."*

A) *Amir Shohmurod* B) *Amir Muzaffar*
C) *Amir Haydar* D) *Amir Nasrullo*

**23.** Amir Temur vafotidan keyin mamlakatda boshlanib ketgan o'zaro kurash va isyonlarga chek qo'yib, 1409-yilda hokimiyatni o'z qo'liga olgan temuriyzodani aniqlang.

A) *Husayn Boyqaro* B) *Mironshoh*
C) *Pirmuhammad* D) *Shohrux*

**24.** 1873-yil Xiva bosib olingach, xon xazinasini kontributsiya (tovon) evaziga musodara qilib Sankt-Peterburgga jo'natgan shaxsni aniqlang.

A) *M.Skobelev* B) *M.Chernyayev*
C) *N.Veryovkin* D) *K.P.Kaufman*

**25.** Qadimgi davrning qaysi bosqichiga kelib O'rta Osiyoda jamiyat harbiy demokratiya tamoyillari asosida yashay boshladi?

A) *neolit* B) *bronza davri* C) *temir asri*
D) *eneolit*

**26.** Ma'muniylar hukmronligi davrida Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylangan shaharni toping.

A) *Xiva* B) *Tuproqqal'a*
C) *Ko'hna Urganch* D) *Kat*

**27.** 1441-1501-yillarda yashagan tarixiy shaxsni aniqlang.

A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
B) *Mirzo Ulug'bek* C) *Amir Temur*
D) *Alisher Navoiy*

**28.** "Shajarai Xorazmshohiy" asarining muallifini aniqlang.

A) *Shermuhammad Munis*
B) *Muhammad Yusuf Bayoniy*
C) *Xudoyberdi Avaz Muhammad*
D) *Hasanbek Rumlu*

**29.** 1917-yilda tashkil etilgan Turkiston o'lkasi musulmonlar kengashi (kraymussovet) raisi bo'lgan shaxsni toping.

A) *Ismoil G'aspirali*
B) *Mahmudxo'ja Behbudiy*
C) *Mustafo Cho'qay* D) *Usmon Yusupov*

**30.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga necha yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolar saylanish huquqiga ega?

A) *25 yoshdan* B) *21 yoshdan*
C) *35 yoshdan* D) *18 yoshdan*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Berilgan qaysi javobda sifatning bir ma'no turi qo'llangan?

A) *Sadafbibi qoramag'izdan kelgan, yuzlari yumaloq, qosh-ko'zlari qop-qora qiz edi.*

B) *Elchi o'rnidan turib, ko'zlari katta-katta, bo'yi novcha Siparganizga ta'zim qildi.*

C) *Yashil barglari tukli, tuxumsimon yoki keng ellipssimon, shoxlarda ketma-ket joylashgan.*

D) *Yomg'irda cho'milgan ulkan bog', qizil qum sepilgan xiyobonlar, gulzorlar yanada go'zal ko'rinardi.*

**2.** Quyidagi qaysi juftliklardan qo'shma so'z hosil qilinganda qo'shib yoziladi?

A) *dev//qomat, har//xil*
B) *hurmat//talab, bug'doy//rang*
C) *hech//vaqt, Qum//qo'rg'on*
D) *Boltiq//bo'yi, ta'sir//et*

**3.** Qaysi gapdagi ayirmoq so'zi "turli ko'z bilan qaramoq" ma'nosida qo'llangan?

A) *Qo'shnilarning bu gapi Malika opani es-hushidan ayirdi, devorga majolsiz suyanib qoldi.*

B) *Siz odam ayirmang, biz hammamiz sizning xodimlaringiz sanalamiz.*

C) *Ikki do'stning hazili janjalga aylanib ketdi, Nodirjon ularni zo'rg'a ayirib qo'ydi.*

D) *Bu ikki kasallikni bir-biridan ayira olmasangiz, o'zingizcha davolanishga harakat qilmang.*

**4.** Qaysi javobda so'z va ibora ma'nodoshligi berilgan?

A) *uxlab qolmoq – mizg'imoq*

B) *hafsalasi pir bo'lmoq – tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq*

C) *gapirmaslik – og'ziga olmaslik*

D) *ko'zi ilinmoq – pinakka ketmoq*

**5.** Qaysi gapda tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) *Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.*

B) *O'g'lim, Nosirjon sizga muhim topshiriq bor.*

C) *Suv keldi – nur keldi.*

D) *Takrorlash – bilimning onasi.*

**6.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z "va'da, lafz" ma'nolarida qo'llangan?

A) *Bu gap tarkibidagi bir nechta so'z o'z o'rnida qo'llanmagan ekan.*

B) *Bu so'z gapda kesim vazifasini bajargan.*

C) *Shu voqea sababli orangizdan biror so'z o'tdimi, ancha xafa ko'rinasan?*

D) *Menga ishoning, bu haqida hech kimga aytmaslikka so'z beraman.*

**7.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *To'pni unga qarata otkan edim, ammo yetib bormadi.*

B) *Anjumanda mashhur shoirning ishtirogi bizga quvonch baxsh etdi.*

C) *Bu holat uzoqqa bormaydi, bilib qo'ying.*

D) *Dadam uyimizda sayroqi qush asrashni yoqdirardi.*

**8.** Hol ajratib ko'rsatilgan gapni toping.

A) *Tabiatni avaylab-asraylik, avlodlarga omon yetkazaylik.*

B) *Bizning yurtimiz boy, tog'larimizda bebaho ma'danlar ko'p.*

C) *Bizga ham shunday kunlar ato etsin, farzandlar kamolini ko'raylik.*

D) *Yo'qotilgan vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi.*

**9.** Qaysi gapda qaratqich kelishigini tushirib qo'llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

A) *Dunyo shoirlarining anjumani bo'lib o'tayotgan bu davlatda avval bo'lmagan edim.*

B) *Bu ishonch bizning faoliyatimizga ta'sir etmasdan qolmaydi.*

C) *Abdulhamid Cho'lponning taxallusi ana shu yorug' yulduzga qiyoslab olingan.*

D) *Davlatimizning ramzi bo'lgan gerbimizda ham bug'doy boshoqlari tasviri bor.*

**10.** To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) *ostona, rahmdil* B) *taxsimot, mayus*
C) *hatar, marifat* D) *xalol, bepayon*

## MATEMATIKA

**11.** Hasan 8 ta har xil kitobdan birini ko'pi bilan necha xil usulda tanlab olishi mumkin?

A) *4*

B) *1*

C) *7*

D) *8*

**12.** 38 santimetr necha millimetrga teng?

A) *3800000*

B) *3800*

C) *380*

D) *38000*

**13.** Rasmning qancha qismi bo'yalgan?



A) $\frac{7}{10}$

B) $\frac{3}{5}$

C) $\frac{2}{5}$

D) $\frac{1}{2}$

**14.** 300 ning 5 %ini toping.

A) *30*

B) *12*

C) *60*

D) *15*

**15.** $\frac{17}{6}$ noto'g'ri kasrning butun qismi nechaga teng?

A) *2*

B) *3*

C) *4*

D) *1*

**16.** Tenglamani yeching: $-3 : x = \frac{1}{2}$

A) $-6$

B) $-3$

C) *6*

D) *3*

**17.** Kubning qirrasining uzunligi 6 cm ga teng bo'lsa, uning to'la sirti yuzini ($cm^2$) toping.

A) *64*

B) *36*

C) *128*

D) *216*

**18.** Hisoblang: $16 \cdot 6 + 4 \cdot 16$

A) *150*

B) *160*

C) *140*

D) *144*

**19.** Agar $a$ soni 35 ga qoldiqsiz bo'linadigan ixtiyoriy son bo'lsa, unda bu son quyidagi qaysi songa har doim qoldiqsiz bo'linadi?

A) *9*

B) *7*

C) *6*

D) *8*

**20.** $x$ ning o‘rniga qaysi son qo‘yilsa, $7:8=3,5:x$ proporsiya to‘g‘ri tenglikka aylanadi?

A) *4*

B) *4.5*

C) *3.5*

D) *5*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** 1583-yildan boshlab Shayboniylar davlatida kim rasman xon deb e’lon qilingan?

A) *Abdullaxon II* B) *Abdulazizxon*
C) *Nodir Muhammadxon*
D) *Navro‘z Ahmadxon*

**22.** 2007-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2750 yillik yubileyi nishonlangan?

A) *Buxoro* B) *Xiva* C) *Samarqand*
D) *Termiz*

**23.** Buxoro xonligida hukmronlik qilgan so‘nggi shayboniy hukmdorni toping.

A) *Abdullaxon II* B) *Navro‘z Ahmadxon*
C) *Ubaydullaxon* D) *Pirmuhammad II*

**24.** Quyida sanab o‘tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?

A) *Abdulhamid Cho‘lpon*
B) *Sharof Rashidov* C) *Usmon Yusupov*
D) *Nuriddin Muhitdinov*

**25.** Turk xoqonligining markazi bo‘lgan hududni belgilang.

A) *Farg‘ona* B) *Oltoy* C) *Balx*
D) *Zarafshon vodiysi*

**26.** “Teatr – bu ibratxonadir” degan fikr qaysi jadid namoyandasiga tegishli?

A) *Fayzulla Xo‘jayev*
B) *Mahmudxo‘ja Behbudiy*
C) *Abdulhamid Cho‘lpon*
D) *Abdulla Qodiriy*

**27.** Turk xoqonligi davrida O‘rta Osiyoda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni toping.

A) *“Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni*

B) *Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon*

C) *Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo‘zg‘olon*

D) *Abruy boshchiligidagi qo‘zg‘olon*

**28.** Andijondagi 1898-yil qo‘zg‘olonidan keyin podsho Nikolay II Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiyni lavozimidan chetlatib, uning vazifasini vaqtinchalik kimning zimmasiga yuklagan?

A) *G.Rozenbax* B) *K.P.Kaufman*
C) *N.Korolkov* D) *S.M.Duxovskoy*

**29.** 1365-yil Amir Temur va Ilyosxo‘ja qo‘shinlari o‘rtasidagi jang tarixda qanday nom bilan shuhrat topdi?

A) *"Parvon jangi"* B) *"Anqara jangi"*
C) *"Tarak daryosi bo‘yidagi jang"*
D) *"Loy jangi"*

**30.** Loydan yasalgan va olovda pishirilgan idishlarni yasash sohasi – kulolchilik tosh davrining qaysi bosqichi muhim ixtirosi hisoblanadi?

A) *bronza* B) *neolit* C) *eneolit*
D) *mezolit*

## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

**1.** *Biz o'z Vatanimizni sevamiz, uni avaylab-asrash bizning burchimizdir.*
Ushbu gapda uni olmoshi qaysi so'zga ishora qilgan?

A) *burchimizdir* B) *sevamiz*
C) *Vatanimizni* D) *bizning*

**2.** Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan birlik to'ldiruvchi vazifasini bajargan?

A) *O'ziga hayrat bilan qarab turgan bolani erkalab qo'ydi.*

B) *Biz so'qmoq bilan yurib katta yo'lga chiqdik.*

C) *Endigina og'iz ochishim bilan uning o'zi kelib qoldi.*

D) *Manavi supurgi bilan hamma yoqni supurib chiq.*

**3.** *muhayyo* so'ziga ma'nodosh bo'lmagan so'zni toping.

A) *tayyor* B) *huzur* C) *shay* D) *taxt*

**4.** Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar qatorini toping.

A) *tabrik//noma, kecha//kunduz*
B) *borib//keldi, har//nafas*
C) *tim//qora, o'rin//bosar*
D) *umum//xalq, to'y//tomosha*

**5.** Qaysi javobdagi so'zlar imloviy jihatdan xato yozilgan?

A) *tanaffus, halol* B) *inshaot, sahovat*
C) *matbuot, million* D) *suhbat, tamoyil*

**6.** *U tog'asinikida uch yil yurib, keyin yana qishloqqa qaytdi.*
Ushbu gapdagi yurmoq so'zi qanday ma'noni ifodalash uchun qo'llangan?

A) *tarqalmoq* B) *davom etmoq*
C) *istiqomat qilmoq* D) *qatnamoq*

**7.** Qaysi so'zlarning yozilishida bosh harflar imlosiga amal qilingan?

A) *Buyuk britaniya, Shirmonbuloq qishlog'i*

B) *Adliya Vazirligi, Yozuvchilar Uyushmasi Raisi*

C) *Jahon tinchlik kengashi, "Nuroniy" Jamg'armasi*

D) *8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Xalq ta'limi vazirligi*

**8.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

A) *Ey farzand o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutma, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil.*

B) *Dono bo'lmoq uchun donishmanddan ham, bilimsizdan ham o'rganmoq kerak.*

C) *Samimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*

D) *Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir, yoki kimningdir suratini keltira oladi.*

**9.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z "voqea-hodisa" ma'nosida qo'llangan?

A) *Qishloqqa kelishi bilan Azimjon haqida turli gap tarqadi, go'yo mashina yutib olgan emish.*

B) *Bu gap tarkibidagi bir nechta so'z o'z o'rnida qo'llanmagan ekan.*

C) *Bunisi ham, unisi ham bir gapdan qolay demasdi.*

D) *Kecha bo'lib o'tgan gaplardan xabarim yo'q edi, hozirgina opamdan eshitdim hammasini.*

**10.** *Indamay konduktorning yoni... o'tib oldim.*
Ushbu gapda ko'p nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini qo'llash uslubiy jihatdan to'g'ri sanaladi?

A) *jo'nalish kelishigi* B) *o'rin-payt kelishigi*
C) *qaratqich kelishigi* D) *tushum kelishigi*

### MATEMATIKA

**11.** 4 sutka necha minutga teng?

A) *1540*

B) *1440*

C) *2880*

D) *5760*

**12.** To'g'ri burchakli parallelepipedning nechta yog'i bor?

A) *12*

B) *4*

C) *8*

D) *6*

**13.** $a = (1-0,2)^2$, $b = 1-0,2^2$, $c = 1-0,2$ sonlarni taqqoslang.

A) $c > b > a$
B) $b > c > a$
C) $a > c > b$
D) $a > b > c$

**14.** Agar daraxt kesuvchi 2 ta daraxtni kesish uchun 1 soat vaqt sarflagan bo'lsa, 9 ta xuddi shunday daraxtni kesishi uchun u necha daqiqa vaqt sarflaydi?

A) *300*
B) *270*
C) *240*
D) *330*

**15.** Nol raqami 1203559 sonning qaysi xona birligida joylashgan?

A) *o'n minglar*
B) *yuz minglar*
C) *yuzlar*
D) *minglar*

**16.** Nusrat aka 18 ta shokoladni farzandlarining har biriga 6 tadan taqsimlab berdi. Nusrat akaning nechta farzandi bor?

A) *2*
B) *4*
C) *5*
D) *3*

**17.** Nechta ikki xonali natural son 11 ga qoldiqsiz bo'linadi?

A) *10*
B) *8*
C) *9*
D) *11*

**18.** Tenglamani yeching: $10(x-6) = 6x$

A) *16*
B) *10*
C) *15*
D) *12*

**19.** Rasmdagi to'g'ri to'rtburchakning perimetri 100 cm ga teng. $x$ ni (cm) toping.




A) *7*
B) *11*
C) *8*
D) *6*

**20.** Shunday butun sonni o'ylangki, u songa 3 ni qo'shib, yig'indini 12 ga ko'paytirsak, natijada nol hosil bo'lsin. O'ylagan sonni toping.

A) $-36$
B) *0*
C) $-3$
D) $-12$

## O'ZBEKISTON TARIXI

**21.** Alisher Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida ...ning darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan.
A) *Atoiy* B) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
C) *Boborahim Mashrab* D) *Lutfiy*

**22.** Oqmachit qal'asi rus qo'shinlari tomonidan egallangach, unga qanday nom berilgan?
A) *Verniy forti* B) *Chernyayev forti*
C) *Veryovkin forti* D) *Perovskiy forti*

**23.** Quyidagilardan qaysi biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?

A) *Turkiston general-gubernatorligi*
B) *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi*
C) *Toshkent bekligi*
D) *Samarqand xonligi*

**24.** O'zbekiston Respublikasida qaysi lavozim 1992-yilda ta'sis etilgan?
A) *Oliy Majlis Raisi* B) *Vitse-prezident*
C) *Prezident* D) *Bosh vazir*

**25.** Rivoyatga ko'ra, qaysi shaharga fors shohi Kir II asos solgan?
A) *Zariasp* B) *Nautaka* C) *Maroqand*
D) *Kurushkat*

**26.** Qaysi tariqat asoschisining fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi, ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi?

A) *Kubroviya* B) *Naqshbandiya*
C) *Yassaviya* D) *Moturidiya*

**27.** Quyidagi qo'zg'olonlardan qaysi biri 1916-yilda bo'lib o'tgan?

A) *Dukchi Eshon qo'zg'oloni*
B) *Jizzax qo'zg'oloni*
C) *Po'latxon qo'zg'oloni*
D) *Ernazarbiy qo'zg'oloni*

**28.** XVI asr oxirida kimning hukmronligi davrida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylangan?

A) *Abulg'oziyxon* B) *Abdullaxon II*
C) *Muhammad Shayboniyxon*
D) *Ismoil Safaviy*

**29.** XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga qaysi alloma vatandoshimizning nomi berilgan?

A) *Qozizoda Rumiy* B) *Ahmad al-Farg'oniy*
C) *Abu Rayhon Beruniy*
D) *Alouddin Ali Qushchi*

**30.** Bobur Mirzo Muhammad Shayboniyxondan yengilgach, 1504-yilda qaysi viloyatda o'z hokimiyatini o'rnatgan?

A) *Balx* B) *Marv* C) *Kobul* D) *O'ratepa*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.

A) *ko‘cha//ko‘y, oyma//oy*
B) *kam//hosil, radio//to‘lqin*
C) *otash//qalb, har//vaqt*
D) *ola//qarg‘a, tamom//bo‘l*

**2.** Quyidagi gapda ko‘p nuqta o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish uslubiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi?
*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko‘plab chiroyli bog‘lar . . .*

A) *taxtlab chiqildi* B) *yasaldi*
C) *farovon qilindi* D) *barpo qilindi*

**3.** To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.

A) *horijiy, muvafaqiyat* B) *xatar, ma’rifat*
C) *xashamat, davat* D) *isnot, extiyot*

**4.** *Tog‘lar qo‘ynidadir mening qishlog‘im,*
*Cho‘qqilari osha ko‘rinar olam.*
Ushbu she’riy parchadagi kesim(lar)ni toping.

A) *qishlog‘im, olam* B) *qishlog‘im, ko‘rinar*
C) *osha, ko‘rinar* D) *qo‘ynidadir, ko‘rinar*

**5.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *Ertalab hammamizni oshka aytib ketishdi.*
B) *O‘sha tog‘ga borishni biz ham orzu qilar edik.*
C) *Biz tong otkuncha shu yerda kutishga qaror qildik.*
D) *Ishdan kech qaytkan G‘ayratjonni qo‘shnisi kutib oldi.*

**6.** Qaysi javobda payt bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

A) *ertalab, hali, zo‘rg‘a*
B) *jimgina, ertadan, buguncha*
C) *har gal, majburan, hanuz*
D) *hamisha, allamahal, endi*

**7.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *Samimiylik ham xuddi zehn, husn va aql kabi ehson.*
B) *Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir, yoki kimningdir suratini keltira oladi.*
C) *Dono bo‘lmoq uchun bilimsizdan ham, o‘rganmoq kerak.*
D) *Ey farzand o‘zingni mol jam qilishdan g‘ofil tutma, ammo halollik bilan mol to‘plashga harakat qil.*

**8.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z “va’da, lafz” ma’nolarida qo‘llangan?

A) *Mansur endi do‘sti o‘z <u>so‘z</u>idan qaytmasligini tushundi.*
B) *Bu gap tarkibidagi bir nechta <u>so‘z</u> o‘z o‘rnida qo‘llanmagan ekan.*
C) *Shu voqea sababli orangizdan biror <u>so‘z</u> o‘tdimi, ancha xafa ko‘rinasan?*
D) *Hamisha otangning <u>so‘z</u>iga quloq sol, shunda hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashmaysan.*

**9.** Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z “uzun” so‘zi bilan o‘zaro ma’nodoshlik hosil qila olmaydi?

A) *U <u>yuqori</u> lavozimlarda ham ishlagan.*
B) *Katalakdekkina hovli ekan: ikki-uch uy, oxirida nurab yotgan <u>cho‘ziq</u> ayvondan iborat.*
C) *Qishning <u>uzoq</u> tunlari buvimning ertaklari bilan o‘tar edi.*
D) *<u>Baland</u> bo‘yli, chayir gavdali yigit o‘rnidan turib gapira boshladi.*

**10.** *Qani edi, qo‘li. . . langar. . . olib «baka-baka-bang» maqomi ostida ohangdor, yengil odimlar bilan arqondan yura qolsa hozir.*
Ushbu gapda nuqtalar o‘rniga qaysi kelishik qo‘shimchalarini qo‘llash uslubiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi?

A) *jo‘nalish, qaratqich*
B) *o‘rin-payt, qaratqich* C) *jo‘nalish, tushum*
D) *jo‘nalish, jo‘nalish*

## MATEMATIKA

**11.** Qirrasi 8 cm bo‘lgan kubning yoniga rasmda ko‘rsatilganidek kichik kub joylashtirilgan. Kichik kubning hajmini (cm$^3$) toping (kichik kubning qirrasi katta kub qirrasining yarmiga teng).




A) *64*

B) *32*

C) *512*

D) *16*

**12.** Rasmda berilgan uchburchakning perimetrini toping.




A) *20*

B) *23*

C) *22*

D) *21*

**13.** O‘quvchi 8 ta har xil she’rdan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlab yod olishi mumkin?

A) *8*

B) *1*

C) *7*

D) *4*

**14.** Ikkita son berilgan. Birinchisi 80 ga teng. Ikkinchi son birinchisidan 20 % ga ortiq bo‘lsa, berilgan sonlardan kattasini toping.

A) *64*

B) *16*

C) *96*

D) *80*

**15.** Hisoblang: $2 \cdot (18 - 6) + 3 \cdot (9 - 12)$

A) *39*

B) *27*

C) *−15*

D) *15*

**16.** Avtomobil 60 km/h tezlik bilan belgilangan butun yo‘lni 3,6 soatda bosib o‘tadi. Avtomobil qanday tezlikda (km/h) harakatlansa, belgilangan butun yo‘lni 2,4 soatda bosib o‘tadi?

A) *85*

B) *95*

C) *90*

D) *80*

**17.** Tenglamani yeching: $\frac{6}{x} \cdot \frac{9}{16} = \frac{27}{32}$

A) *6*

B) *8*

C) *4*

D) *2*

**18.** 1 dan 11 gacha bo‘lgan toq sonlar ko‘paytmasining oxirgi raqamini toping.

A) *1*

B) *7*

C) *5*

D) *3*

**19.** Hisoblang: $\frac{1}{2} + \frac{1}{4} + \frac{1}{6} + \frac{1}{12}$

A) $\frac{9}{12}$

B) $\frac{11}{12}$

C) $\frac{1}{6}$

D) 1

**20.** 108 santimetr necha millimetrga teng?

A) *1080*

B) *10800*

C) *108000*

D) *10800000*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** O‘zbek adabiyotida poeziyaga masalni birinchi bo‘lib mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkorni toping.

A) *Gulxaniy* B) *Turdi Farog‘iy*
C) *Maxmur* D) *Muqimiy*

**22.** VII asrda Movarounnahrga harbiy yurishlarini boshlagan xalqlarni toping.

A) *xiyoniylar* B) *qoraxitoylar* C) *arablar*
D) *mo‘g‘ullar*

**23.** Xiva xonligida urush paytlarida qoraqalpoqlardan qanday soliq yig‘ib olingan?

A) *qozon puli* B) *salg‘ut* C) *ushr*
D) *zakot*

**24.** "Ipak yo‘li"ga shu nom 1877-yilda kim tomonidan berilgan?

A) *nemis geografi F.Rixtgofen*

B) *fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon*

C) *nemis olimi Genrix Shlimann*

D) *fransuz olimi A.Dyuperron*

**25.** 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda qaysi buyuk vatandoshimiz tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi?

A) *Amir Temur* B) *Mirzo Ulug‘bek*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
D) *Jaloliddin Manguberdi*

**26.** Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?

A) *chokar* B) *dehqon* C) *kadivar*
D) *kashovarz*

**27.** 769-783-yillarda bo‘lib o‘tgan "Oq kiyimlilar" qo‘zg‘olonining rahbarini "Muqanna" laqabi bilan atashgan. "Muqanna" so‘zining ma’nosi nima?

A) *"niqobdor"*

B) *"musulmonlar e’tiqodini tuzatuvchi"*

C) *"hidoyat yo‘lining sarboni"*

D) *"dinning ulug‘ yulduzi"*

**28.** 1919-yilda tuzilgan Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati boshlig‘i etib tayinlangan shaxsni toping.

A) *Madaminbek* B) *Obidjon Mahmudov*
C) *Ubaydulla Xo‘jayev*
D) *Abdurahmon O‘razayev*

**29.** Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?

A) *bevatanlar* B) *barzikorlar*
C) *yarimchilar* D) *vaqfchilar*

**30.** 1810-yilda Toshkentni Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shib olgan hukmdorni aniqlang.

A) *Norbo‘tabiy* B) *Xudoyorxon*
C) *Olimxon* D) *Muhammad Ali*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *Dono bo‘lmoq uchun bilimsizdan ham, o‘rganmoq kerak.*

B) *Ey farzand o‘zingni mol jam qilishdan g‘ofil tutma, ammo halollik bilan mol to‘plashga harakat qil.*

C) *Samimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*

D) *Odamda tasavvur bor, shuning uchun nimaningdir yoki kimningdir suratini xayoliga keltira oladi.*

**2.** Qaysi gapda o‘zaro ma’nodosh so‘zlar ishtirok etgan?

A) *Bolangga ham, uyingga ham qara, ham dam ol.*

B) *Gunafshalar qulog‘imga madhingni*
*So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi.*

C) *Qon yugurdi ol yonog‘iga,*
*Bargi g‘ubor – changdan aridi.*

D) *Quyosh chiqdi, gul yaprog‘iga*
*Tunda qo‘ngan shabnam aridi.*

**3.** Quyidagi gapda ko‘p nuqta o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish uslubiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi?
*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko‘plab chiroyli bog‘lar …*

A) *taxtlab chiqildi* B) *barpo qilindi*
C) *yasaldi* D) *farovon qilindi*

**4.** Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik kuzatiladi?

A) *Mana shu xizmatlari uchun sho‘rolar zamonida jadidlarning ko‘pchiligi otib tashlangan yoki o‘zga yurtlarga badarg‘a qilingan.*

B) *Ular Vatan oldidagi tarixiy burchlarini chuqur anglagan holda chin yurakdan, sadoqat bilan, har qanday mashaqqatlarga chidab faoliyat olib borganlar.*

C) *Agar savob ish qilish uchun moddiy jihatdan qurbingiz yetmasa, hech siqilmang, daraxt eking, gul o‘tqazing, odamlarda shirinso‘zlik bo‘ling.*

D) *Bu ishlarning barini jadidlar shovqin-suronsiz, bir og‘iz ham maqtanmasdan, pisandasiz va tamasiz amalga oshirganlar.*

**5.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan birlik sabab holi vazifasini bajargan?

A) *Shunaqa gaplarni aytadiki, <u>ilon po‘st tashlaydi-ya</u>.*

B) *<u>Hafsalasi pir bo‘lgan</u> Anvarjon uyga qaytib keldi va kun bo‘yi xonasidan chiqmadi.*

C) *Bu ishni <u>yeng shimarib</u> bajargan Odiljonni otasi maqtab qo‘ydi.*

D) *<u>Ikki oyog‘ini bir etikka tiqib olgani uchun</u> shu velosipedni olib berdim.*

**6.** Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.

A) *ola//qarg‘a, tamom//bo‘l*
B) *kam//hosil, radio//to‘lqin*
C) *ko‘cha//ko‘y, oyma//oy*
D) *otash//qalb, har//vaqt*

**7.** Qaysi javobda qo‘shma sifatlar berilgan?

A) *orzumand, balandparvoz*
B) *devsifat, sovuqmijoz*
C) *suvilon, shirinzabon*
D) *serg‘ayrat, kaltafahm*

**8.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *Ishdan kech qaytkan G'ayratjonni qo'shnisi kutib oldi.*

B) *Ertalab hammamizni oshka aytib ketishdi.*

C) *Biz tong otkuncha shu yerda kutishga qaror qildik.*

D) *O'sha tog'ga borishni biz ham orzu qilar edik.*

**9.** Qaysi javobdagi so'zlar to'g'ri yozilgan?

A) *joyiz, muommo* B) *muallim, doyira*
C) *soat, tabiat* D) *muattar, mutoala*

**10.** Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) *Buloqning ko'zi qayta ochildi, obihayot jildirab-jildirab oqardi.*

B) *Ma'yus majnuntollar ularni hamon kutishayotgan ekanmi?*

C) *G'amdan o'rtangan tanbur ovozi uni allaqayoqlarga olib ketgandek bo'ldi.*

D) *U yoshlikdagi qadrdon o'rtog'ini juda sog'ingan ekan, gaplashib to'ymasdi.*

## MATEMATIKA

**11.** Ikkita son berilgan. Birinchisi 80 ga teng. Ikkinchi son birinchisidan 20 % ga ortiq bo'lsa, berilgan sonlardan kattasini toping.

A) *96*

B) *64*

C) *16*

D) *80*

**12.** Quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

A) $48 = 7 \cdot 5 + 6$

B) $48 = 6 \cdot 5 + 6$

C) $48 = 8 \cdot 5 + 8$

D) $48 = 6 \cdot 5 + 9$

**13.** Oilada 4 kishi bor. Ulardan har birining tug'ilgan kunida qolganlarining har biri bittadan sovg'a berishadi. Bir yilda bu oilada (tug'ilgan kun uchun yig'ilgan) jami sovg'alar soni eng ko'pi bilan nechta bo'ladi?

A) *8*

B) *12*

C) *4*

D) *16*

**14.** Avtomobil 60 km/h tezlik bilan belgilangan butun yo'lni 3,6 soatda bosib o'tadi. Avtomobil qanday tezlikda (km/h) harakatlansa, belgilangan butun yo'lni 2,4 soatda bosib o'tadi?

A) *90*

B) *95*

C) *85*

D) *80*

**15.** Chizmadagi shakllarning bo'yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig'indisini hisoblang.




A) $\frac{4}{5}$

B) $1\frac{1}{2}$

C) $\frac{2}{3}$

D) $\frac{7}{10}$

**16.** 5,86; 7,04 va 2,1 sonlarining o'rta arifmetik qiymati nechaga teng?

A) *6*

B) *5,25*

C) *5*

D) *4,85*

**17.** Tenglamani yeching: $2(5x+1)=8x+10$

A) *7*

B) *6*

C) *5*

D) *4*

**18.** Kub qirrasining uzunligi 4 cm ga teng bo‘lsa, uning to‘la sirti yuzini ($cm^2$) toping.

A) *128*

B) *96*

C) *144*

D) *64*

**19.** Nuqtalar o‘rniga qaysi eng katta butun sonni qo‘ysak, $225-\ldots>144$ tengsizlik to‘g‘ri bo‘ladi?

A) *82*

B) *80*

C) $-140$

D) *81*

**20.** Bochkada 300 litr yog‘ bor. Birinchi kuni bu yog‘ning 25 $dm^3$ i, ikkinchi kuni esa 50 $dm^3$ i ishlatildi. Bochkada necha litr yog‘ (ishlatilmay) qolgan?

A) *220*

B) *215*

C) *235*

D) *225*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** Shohrux 1409-yilda kimni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlagan?
A) *Mironshohni* B) *Xalil Sultonni*
C) *Husayn Boyqaroni* D) *Mirzo Ulug‘bekni*

**22.** Kushon davlatida qaysi hukmdor hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston) ga ko‘chirilgan?
A) *Kanishka* B) *Kir II* C) *Demetriy*
D) *Doro I*

**23.** 1932-1936-yillarda RSFSR tarkibida bo‘lgan davlat tuzilmasini aniqlang.

A) *Qoraqalpog‘iston*

B) *Xiva xonligi*

C) *Turkiston general-gubernatorligi*

D) *Buxoro amirligi*

**24.** Xiva xonligida urush paytlarida qoraqalpoqlardan qanday soliq yig‘ib olingan?
A) *zakot* B) *salg‘ut* C) *ushr*
D) *qozon puli*

**25.** 769-783-yillarda bo‘lib o‘tgan "Oq kiyimlilar" qo‘zg‘olonining rahbarini "Muqanna" laqabi bilan atashgan. "Muqanna" so‘zining ma’nosi nima?

A) *"hidoyat yo‘lining sarboni"*

B) *"musulmonlar e’tiqodini tuzatuvchi"*

C) *"niqobdor"*

D) *"dinning ulug‘ yulduzi"*

**26.** 2016-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan olimpiada o‘yinlarining oltin medaliga sazovor bo‘lgan vatandoshimizni aniqlang.
A) *Murodjon Ahmadaliyev*
B) *Iroda To‘laganova* C) *Ruslan Nuriddinov*
D) *Yekaterina Xilko*

**27.** Shohruxbiy vafotidan keyin Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirgan shaxsni aniqlang.
A) *Abdurahimbiy* B) *Erdonabiy*
C) *Norbo‘tabiy* D) *Abdulkarimbiy*

**28.** Quyida berilgan lavozimlardan qaysi biri Buxoro xonligida ashtarxoniylar davrida joriy etilgan.
A) *shayxulislom* B) *otaliq* C) *devonbegi*
D) *saroy qutvoli*

**29.** 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.
A) *Saljuqiylar davlati* B) *Somoniylar davlati*
C) *Qoraxoniylar davlati*
D) *G‘aznaviylar davlati*

**30.** Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?
A) *vaqfchilar* B) *bevatanlar* C) *barzikorlar*
D) *yarimchilar*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi javobda qo'shma sifatlar berilgan?
A) *serg'ayrat, kaltafahm*
B) *devsifat, sovuqmijoz*
C) *suvilon, shirinzabon*
D) *orzumand, balandparvoz*

**2.** Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z "uzun" so'zi bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila olmaydi?

A) *Baland bo'yli, chayir gavdali yigit o'rnidan turib gapira boshladi.*

B) *U yuqori lavozimlarda ham ishlagan.*

C) *Qishning uzoq tunlari buvimning ertaklari bilan o'tar edi.*

D) *Katalakdekkina hovli ekan: ikki-uch uy, oxirida nurab yotgan cho'ziq ayvondan iborat.*

**3.** Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

A) *Ishdan kech qaytkan G'ayratjonni qo'shnisi kutib oldi.*

B) *Biz tong otkuncha shu yerda kutishga qaror qildik.*

C) *Ertalab hammamizni oshka aytib ketishdi.*

D) *O'sha tog'ga borishni biz ham orzu qilar edik.*

**4.** *Suhbat birdan jonlanib ketdi, hamma o'z fikrini dadil o'rtaga tashlay boshladi.*
Ushbu gapda qo'llangan jonlanmoq so'zi qanday ma'no(lar)ni ifodalash uchun qo'llangan?

A) *ravnaq topmoq, rivojlanmoq*

B) *sog'aymoq, tuzalmoq*

C) *namoyon bo'lmoq, gavdalanmoq*

D) *qizg'in tus olmoq, qizimoq*

**5.** Qaysi javobda ajratib yoziladigan so'zlar berilgan?
A) *tom//orqa, suv//talab*
B) *ham//maktab, veb//sahifa*
C) *hech//qachon, jiqqa//ho'l*
D) *mehmon//xona, omma//bop*

**6.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

A) *Samimiylik ham xuddi zehn, husn va aql kabi ehson.*

B) *Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir, yoki kimningdir suratini keltira oladi.*

C) *Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham, o'rganmoq kerak.*

D) *Ey farzand o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutma, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil.*

**7.** Qaysi javobda qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanishi kuzatiladi?

A) *Biling, ushbu zamon g'amnokidurman,*
*Kuyib, o'rtanmish elning xokidurman.*

B) *Sulton ne zotlarning qo'lin qayirib,*
*Muhtasham saltanat aylamish barpo.*

C) *Ochsang davronlarning kitoblarini,*
*Qancha karvonlarning ertagi bordir.*

D) *Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?*
*Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan.*

**8.** To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.
A) *horijiy, muvafaqiyat* B) *ogoh, saxovat*
C) *isnot, extiyot* D) *xashamat, davat*

**9.** Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) *Buloqning ko'zi qayta ochildi, obihayot jildirab-jildirab oqardi.*

B) *Ma'yus majnuntollar ularni hamon kutishayotgan ekanmi?*

C) *U yoshlikdagi qadrdon o'rtog'ini juda sog'ingan ekan, gaplashib to'ymasdi.*

D) *G'amdan o'rtangan tanbur ovozi uni allaqayoqlarga olib ketgandek bo'ldi.*

**10.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan birlik sabab holi vazifasini bajargan?

A) *Shunaqa gaplarni aytadiki, ilon po‘st tashlaydi-ya.*

B) *Ikki oyog‘ini bir etikka tiqib olgani uchun shu velosipedni olib berdim.*

C) *Hafsalasi pir bo‘lgan Anvarjon uyga qaytib keldi va kun bo‘yi xonasidan chiqmadi.*

D) *Bu ishni yeng shimarib bajargan Odiljonni otasi maqtab qo‘ydi.*

## MATEMATIKA

**11.** Ikkita son berilgan. Birinchisi 80 ga teng. Ikkinchi son birinchisidan 20 % ga ortiq bo‘lsa, berilgan sonlardan kattasini toping.

A) *96*

B) *80*

C) *64*

D) *16*

**12.** Chizmadagi shakllarning bo‘yalgan qismlarini ifodalovchi kasr sonlar yig‘indisini hisoblang.



A) $\frac{7}{10}$

B) $\frac{4}{5}$

C) $\frac{2}{3}$

D) $1\frac{1}{2}$

**13.** Hajmi 135 $cm^3$ ga teng bo‘lgan to‘g‘ri burchakli parallelepipedning balandligi 9 cm ga teng. To‘g‘ri burchakli parallelepiped asosining yuzini ($cm^2$) toping.

A) *15*

B) *14*

C) *12*

D) *13*

**14.** 5,86; 7,04 va 2,1 sonlarining o‘rta arifmetik qiymati nechaga teng?

A) *5*

B) *4,85*

C) *5,25*

D) *6*

**15.** Bochkada 300 litr yog‘ bor. Birinchi kuni bu yog‘ning 25 $dm^3$ i, ikkinchi kuni esa 50 $dm^3$ i ishlatildi. Bochkada necha litr yog‘ (ishlatilmay) qolgan?

A) *235*

B) *225*

C) *215*

D) *220*

**16.** Nol raqami 482068 sonining qaysi xona birligida joylashgan?

A) *yuz minglar*

B) *minglar*

C) *o‘n minglar*

D) *yuzlar*

**17.** Tenglamani yeching: $2(5x + 1) = 8x + 10$

A) *6*

B) *7*

C) *4*

D) *5*

**18.** O‘quvchi 8 ta har xil she’rdan birini ko‘pi bilan necha xil usulda tanlab yod olishi mumkin?

A) *7*

B) *8*

C) *1*

D) *4*

**19.** Avtomobil 60 km/h tezlik bilan belgilangan butun yo‘lni 3,6 soatda bosib o‘tadi. Avtomobil qanday tezlikda (km/h) harakatlansa, belgilangan butun yo‘lni 2,4 soatda bosib o‘tadi?

A) *80*

B) *90*

C) *95*

D) *85*

**20.** Nuqtalar o‘rniga qaysi eng katta butun sonni qo‘ysak, $225 - \ldots > 144$ tengsizlik to‘g‘ri bo‘ladi?

A) *−140*

B) *81*

C) *80*

D) *82*

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** O‘zbek adabiyotida poeziyaga masalni birinchi bo‘lib mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkorni toping.

A) *Maxmur* B) *Gulxaniy* C) *Muqimiy*
D) *Turdi Farog‘iy*

**22.** XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug‘ullangan?

A) *mutavalli* B) *shayxulislom* C) *mehtar*
D) *mushrif*

**23.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri "xorazmshoh" unvonini tiklagan?

A) *Otsiz* B) *Takash*
C) *Qutbiddin Muhammad* D) *Elarslon*

**24.** Xiva xonligida urush paytlarida qoraqalpoqlardan qanday soliq yig‘ib olingan?

A) *ushr* B) *qozon puli* C) *zakot*
D) *salg‘ut*

**25.** 1810-yilda Toshkentni Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shib olgan hukmdorni aniqlang.

A) *Norbo‘tabiy* B) *Xudoyorxon*
C) *Muhammad Ali* D) *Olimxon*

**26.** Qaysi davrdan boshlab hozirgi qiyofadagi odam – kromanyon odami yashagan?

A) *so‘nggi paleolit* B) *o‘rta paleolit*
C) *neolit* D) *mezolit*

**27.** Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?

A) *dehqon* B) *chokar* C) *kadivar*
D) *kashovarz*

**28.** 2016-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan olimpiada o‘yinlarining oltin medaliga sazovor bo‘lgan vatandoshimizni aniqlang.

A) *Iroda To‘laganova*
B) *Murodjon Ahmadaliyev*
C) *Ruslan Nuriddinov* D) *Yekaterina Xilko*

**29.** G‘arbiy Turk xoqonligiga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan tashqari yana qaysi hududlar kirgan?

A) *Shimoliy Xitoy* B) *Irtish daryosi havzasi*
C) *G‘arbiy Sibir*
D) *Sirdaryo va Amudaryo havzalari*

**30.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya kombinati bunyod etilgan?

A) *Qo‘qon* B) *Buxoro* C) *Bekobod*
D) *Navoiy*

# MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

**1.** Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi bilan bog‘liq imloviy xatolik mavjud?

A) *Bu gapni hammaga eshittirib aytdi.*

B) *Yarasini qandaydir dori bilan kuydiribdi.*

C) *Kun bo‘yi ishlab toliqgan Ilhomjon darrov uxlab qoldi.*

D) *Biz bu qishloqqa ikki marta kelgan edik.*

**2.** Qaysi javobda payt bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

A) *ertalab, hali, zo‘rg‘a*

B) *hamisha, allamahal, endi*

C) *jimgina, ertadan, buguncha*

D) *har gal, majburan, hanuz*

**3.** Xato yozilgan so‘zlar qatorini toping.
A) *sharoit, taraqqiyot* B) *qanoat, madad*
C) *muovin, maxfiy*
D) *xushmuomila, tushinmoq*

**4.** Quyidagi gapda ko‘p nuqta o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish uslubiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi?
*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko‘plab chiroyli bog‘lar ...*
A) *yasaldi* B) *taxtlab chiqildi*
C) *barpo qilindi* D) *farovon qilindi*

**5.** Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) *Ey farzand o‘zingni mol jam qilishdan g‘ofil tutma, ammo halollik bilan mol to‘plashga harakat qil.*

B) *Samimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*

C) *Odamda tasavvur bor, shuning uchun nimaningdir yoki kimningdir suratini xayoliga keltira oladi.*

D) *Dono bo‘lmoq uchun bilimsizdan ham, o‘rganmoq kerak.*

**6.** *Tog‘lar qo‘ynidadir mening qishlog‘im,*
*Cho‘qqilari osha ko‘rinar olam.*
Ushbu she’riy parchadagi kesim(lar)ni toping.
A) *osha, ko‘rinar* B) *qishlog‘im, ko‘rinar*
C) *qo‘ynidadir, ko‘rinar* D) *qishlog‘im, olam*

**7.** Qaysi gapda o‘zaro ma’nodosh so‘zlar ishtirok etgan?

A) *Bolangga ham, uyingga ham qara, ham dam ol.*

B) *Qon yugurdi ol yonog‘iga,*
*Bargi g‘ubor – changdan aridi.*

C) *Quyosh chiqdi, gul yaprog‘iga*
*Tunda qo‘ngan shabnam aridi.*

D) *Gunafshalar qulog‘imga madhingni*
*So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi.*

**8.** *Biz... birov... uyi... mehmon kelsa, yon qo‘shnisi, albatta, un... xabar oladi.*
Ushbu gapda nuqtalar o‘rnida qaysi kelishik qo‘shimchasini qo‘llab bo‘lmaydi?
A) *chiqish* B) *o‘rin-payt* C) *tushum*
D) *jo‘nalish*

**9.** Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z ko‘chma ma’noda **qo‘llanmagan**?

A) *Otning porlab turgan qop-qora ko‘zlari qizning qalbini zavqqa to‘ldirib yuborgan edi.*

B) *Yosh chog‘im – oltin chog‘im, hayot tashvishlaridan xoli damlardir yoshlik.*

C) *Deraza oynasiga kumush yog‘du yopirildi, osuda tun butun borliqni allalay boshladi.*

D) *Do‘stim, biz ham Aliyevning soyasida shunaqa mansablarni egallab o‘tiribmiz.*

**10.** Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) *tom//orqa, liq//to‘la*
B) *cho‘l//yalpiz, har//xil*
C) *bug‘doy//rang, suv//talab*
D) *pak//pakana, yilma//yil*

## MATEMATIKA

**11.** Rasmda berilgan uchburchakning perimetrini toping.




A) *23*

B) *21*

C) *20*

D) *22*

**12.** Tenglamani yeching: $\dfrac{7}{8-x} = \dfrac{10}{9+x}$

A) *1*

B) *0*

C) *2*

D) *3*

**13.** Quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) *10* $m^2$=*10000* $mm^2$

B) *10* $m^2$=*100* $dm^2$

C) *10* $m^2$=*1000* $cm^2$

D) *10* $m^2$=*1000* $dm^2$

**14.** 7,37; 5,45 va 2,18 sonlarining o‘rta arifmetik qiymati nechaga teng?

A) *6*

B) *7*

C) *4*

D) *5*

**15.** Rasmdagi ma’lumotlardan foydalanib baliq uzunligining necha foizi havoda ekanligini aniqlang.




A) 16

B) $16\dfrac{2}{3}$

C) 15

D) $16\dfrac{1}{3}$

**16.** Arqon 2:3 nisbatda ikki bo‘lakka bo‘lindi. Kichik bo‘lakning uzunligi 12 metr bo‘lsa, dastlab (bo‘linmagan) arqonning uzunligi necha metr bo‘lgan?

A) *24*

B) *25*

C) *30*

D) *36*

**17.** Kubning qirrasi 5 dm bo‘lsa, hajmini ($dm^3$) toping.

A) *1000*

B) *512*

C) *729*

D) *125*

**18.** Quyidagi tengliklardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) $48 = 7 \cdot 5 + 6$

B) $48 = 6 \cdot 5 + 9$

C) $48 = 6 \cdot 5 + 6$

D) $48 = 8 \cdot 5 + 8$

**19.** Oilada 4 kishi bor. Ulardan har birining tug‘ilgan kunida qolganlarining har biri bittadan sovg‘a berishadi. Bir yilda bu oilada (tug‘ilgan kun uchun yig‘ilgan) jami sovg‘alar soni eng ko‘pi bilan nechta bo‘ladi?

A) *12*

B) *16*

C) *4*

D) *8*

**20.** Hisoblang: $2 \cdot (18 - 6) + 3 \cdot (9 - 12)$

A) *39*

B) *15*

C) *27*

D) $-15$

## O‘ZBEKISTON TARIXI

**21.** Shohrux 1409-yilda kimni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlagan?
A) *Xalil Sultonni* B) *Mirzo Ulug‘bekni*
C) *Husayn Boyqaroni* D) *Mironshohni*

**22.** Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?
A) *vaqfchilar* B) *bevatanlar* C) *barzikorlar*
D) *yarimchilar*

**23.** 1932-1936-yillarda RSFSR tarkibida bo‘lgan davlat tuzilmasini aniqlang.

A) *Xiva xonligi*

B) *Buxoro amirligi*

C) *Turkiston general-gubernatorligi*

D) *Qoraqalpog‘iston*

**24.** 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.
A) *G‘aznaviylar davlati*
B) *Qoraxoniylar davlati*
C) *Saljuqiylar davlati* D) *Somoniylar davlati*

**25.** 1864-yil M.Chernyayev qaysi shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida mag‘lubiyatga uchragan?
A) *Samarqand* B) *Xiva* C) *O‘ratepa*
D) *Toshkent*

**26.** Buxoro xonligida xon va shahzodalar o‘rtasidagi munosabatlar masalasi bilan qaysi mansabdagi amaldor shug‘ullangan?
A) *mehtar* B) *xon yasovuli* C) *ko‘kaldosh*
D) *dodxoh*

**27.** "Ipak yo‘li"ga shu nom 1877-yilda kim tomonidan berilgan?

A) *fransuz olimi A.Dyuperron*

B) *nemis olimi Genrix Shlimann*

C) *nemis geografi F.Rixtgofen*

D) *fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon*

**28.** O‘zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.

A) *O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi*

B) *O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi*

C) *O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*

D) *O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi*

**29.** Quyida berilgan lavozimlardan qaysi biri Buxoro xonligida ashtarxoniylar davrida joriy etilgan.
A) *otaliq* B) *saroy qutvoli* C) *shayxulislom*
D) *devonbegi*

**30.** Quyidagilardan kim qoraqo‘yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan?
A) *Amir Xudoydot* B) *Amir Husayn*
C) *Amirak Ahmad* D) *Boyazid Yildirim*